

MIRACH CHAG'RI OQTOSH

# Seni Sevaman Demam, Sev

*Chunki insonni vaqt emas, sevgi davolaydi...*



**Mirach Chag'ri Oqtosh**

**“SENI SEVAMAN”  
DEMA, SEV**

*Chunki insonni vaqt emas,  
sevgi davolaydi*



**BEST BOOK**  
NASHR

**Toshkent - 2022**

*“BEST-BOOK” nashriyoti ushbu kitobni Turkiyaning yozuvchi Mirach Chag‘ri Oqtosh 2022-yil 18-mayda tuzilgan shartnoma asosida chop etdi. Agar kitobning oldi muqovasida qalbakilashtirishdan himoyalovchi vosita gologramma bo‘lmasa, demak, bu kitob qalbaki. Darhol +99 871 200-98-99 telefon raqamiga qo‘ng‘iroq qilishingizni iltimos qilamiz! Buning uchun sizdan benihoya minnatdor bo‘lamiz va sizga kitob sovg‘a qilamiz.*

UO‘K: 821.512.161-3

KBK: 84(5Tur)

O 98

Men qurgan eng chiroyli orzularim buzib tashlandi. Ustaga ustak hech kutilmagan insonlar tarafidan. Men esa bu vaziyatda sukut saqladim. Qo‘rqoqligimdan emas, ranjiganimdan. Ba‘zan insonning eng ko‘p gapirishi kerak bo‘lgan narsalarning o‘riniga uning jimjitligi sahnaga chiqadi. Men ham jim bo‘lib, o‘z spektaklimni tomosha qildim.

Reytinglarda rekordni qayd qilgan bu spektaklda bosh rolni yolg‘izligim va puchga chiqqan hayollarim o‘ynadi. Men esa shunchaki tomosha qildim. Eng go‘zal hislarimni bunga arzimaydigan insonlar uchun isrof qildim.

ISBN 978-9943-8251-2-3

© Mirach Chag‘ri Oqtosh  
© «Indigo» Yayinlari &  
«Akdem Agenciy» ajansi.  
© «BEST-BOOK», nashriyoti 2022.

*“Seni sevaman”*  
*dema, Sev*

**MIRACH CHAG‘RI OQTOSH**

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Men bu sahifani bo'sh qoldirdim.  
Chunki sening qalbing bo'sh edi.  
Men esa har kuni seni sevganicha uni  
to'ldirdim.

Meni ham ushbu go'zallik bilan  
to'ldirishingni tilayman.

To'lmaydigan bo'shlig'imga...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Jonimning ich-ichida...  
Jonimga aylanib qol.  
Jonim chiqquniga qadar...

Sen boshqa inson bilan  
uyquga ketar ekansan,  
men sen uchun ochdim ko'zlarimni.

Sen boshqa inson bilan  
tabassum qilgancha o'qirkansan,  
men yozganlarimni senga atadim.

Sen boshqasi bilan  
qahqaha otib kularkansan,  
men sen uchun to'kdim ko'zyoshlarimni.

Sen uchun hech narsa qilmaydigan  
insonlarga ishonar ekansan,  
men sening yolg'onlaringga ishondim.

Sen tufayli shunday dardga  
mubtalo bo'ldimki...

Senga tezkor ehtiyojim bor...

Seni yo'qotayotganimdan  
jon beryapman...



## Salom

Uzoq vaqtdan buyon ayni tuyg'ularni baham ko'rganim, qalblari parcha-parcha bo'lgan, ahmoqona fikr sohibi bo'lgan insonlar tarafidan tuyg'ulari toptalgan insonlarga salom. Mendan ushbu misralarni nega, qanday yozganim haqida ko'p savollar berasiz. Sizga javob bera olmayman, chunki yozishga bo'lgan ishtiyoqni har bir inson ham ichida saqlab tura olmaydi. Har bir inson ham yozishga qodir emas.

Masalan, baxtli inson so'zlarni oqqa tushira olmaydi. Baxtli inson yoza olishi mumkin bo'lgan yagona narsa – bu uning baxtidir. Shu bois yozgan satrlari har doim ham diqqatni jalb qilmas, balki. Yozadiganlar esa yolg'iz, baxtsiz, qalbi singan, yuragi parcha-parcha bo'lgan, hech kimga zarracha ham ishonchi qolmagan insonlardir. Biroq ishonchingiz komil bo'lsin: eng go'zal ravishda aynan shu insonlar sevadilar, sevsa ham juda kuchli sevadilar. Ishq va haqiqiy sevgiga ko'proq baxtsiz insonlar munosibdir.

Ishqqa loyiq bo'lmagan insonlar hamisha, har qadamda uchraydi. Buni siz ham bilasiz. Ammo bizga malham bo'lgan insonlarni kimdir atayin bir necha kilometr uzoqlikka olib ketgandek go'yo. Qalbi parcha-parcha bo'lib



Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

singan insonlar mana shu uzoqlikka qaramay sevadilar. Siz qanday bo'lsangiz, shunday bo'lib qoling, xudbin insonlar uchun tuyg'ularingizni aslo behuda sarflamang.

Qizlar haqida ham biroz so'z yuritishni istayman, chunki bir qancha do'stlarim bu borada mendan tez-tez maslahat so'rab turishadi. Ba'zi farosatsiz insonlar esa qizlarning tuyg'ularini o'yin biladi. Ushbu farosatdan mahrum insonlarning barchasi ayni xatoga yo'l qo'yadi. Oqibati esa qizlarni ranjitadi. Ranjimay bo'larkanmi, axir? Qiz bola bo'lsa. Ular nozik xilqat. Ishonchini qozonish mushkul, baxtli qilish esa o'ta oson bo'lgan xilqat.

Ba'zilar ayollarni tushuna olmasligini aytadi. Avvalo o'z ayolingni tushunishga urinib ko'rdingmi, baraka topgur? "Ayollarni tushunmayman", deyishdan nariga o'tmaysan hech. Qizlar, sizlarni ko'p himoya qildim, nima bo'lgan taqdirda ham. Bunga javoban musht yeyishim mumkin, ammo erkak kishi o'z ayoliga egalik qilishi kabi go'zal narsa bormi dunyoda? Bor, albatta: erkak o'z ayolini rashk qilishi, u yurgan tomonda erkaklar borligini ko'rib, o'sha tomonga o'tishi.

## Buni hamma ham uddalay olmaydi

Biz, erkaklar, e'tiborni natijaga qaratgan holda fikr-laymiz, ammo qalbimizning tub-tubida haqiqiy, sog'lom tuyg'ularni saqlaymiz. Biroq bu har bir mardning qo'lidan keladigan ish emas. Har bir erkak bir qizning sevgan juf-ti, yaqin do'sti bo'la olishi mumkin, asosiysi esa, qizga u o'zgacha ekanini his ettira olish, oilasining bir parchasiga aylanishdir.

Erkaklar ham seva oladi, ammo ayollar qalbi bor in-sonlarnigina sevadi. Men uchun insonlarning emas, qalb-larning holati yetarli. Ko'p gapirib yubordim. Ko'rishgun-cha.

**"Og'ir jinoyat qilib, ko'zlaringga taslim bo'lsam...  
Yana bir umrga. Qalbing zindoniga tashlaysanmi meni?"**

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Meni sindirish uchun  
bellashishingizga hojat yo'q.  
Tashvishlanmang, barchangizga yetarli  
darajada sinadigan qalbim bor!



Bu shaharda  
seni kutmagan bekatim qolmadi.  
Doim to'la eding...  
Hech to'xtamading...

Ba'zan ortig'i bilan  
borlig'imga aylanasan...  
Ammo bu men uchun juda kam!



Sen qalbimga kirsang bas,  
ko'zimga uyqu kelmasa ham  
mayli...

Mendan ketgach,  
seni men sevganim kabi  
samimiy sevishlariga haqiqatan ham  
ishonasanmi?

Seni qabul qilishlari,  
sening qalbingga munosib  
bo'lishlariga ishonasanmi?

Unday qilma, sevgilim!..

Bunga yo'l qo'yma!..

Ichida bo'lmagan qalbingga  
loyiq edim men...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Qalbimning eng go'zal holatisan...



Sendan shafqatsizroq  
insonni topgunga qadar...  
Sevgilim sensan.



Shu qadar sevardiki...  
Jon berdi...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Ko'proq sen bilan suhbat  
qurish lozim,  
sukut saqlash emas.



Qahva yolg'iz ichiladi.  
Choy bir qancha insonlar davrasida  
ichilishi mumkin.  
Sezen<sup>1</sup> tunda tinglanadi.  
Ammo sen hamisha sevilasan.

---

<sup>1</sup> Sezen Aksu – mashhur turk san'atkori. *Tarjimon izohi*

Ular quchishni bilmaydi,  
sezyapman, ularning yonida  
sovuqqotasan.



Ortingdan sevganim ishq,  
his etganlarimning hattoki  
yarmi ham emas.



Sen ketmoqdasan,  
Sezen kuylay boshlaydi.  
Men esa she'r yozaman...  
Ketma, Sezen kuylayversin,  
biz esa raqs tushaylik...



Sen tufayli oqqan  
ko'zyoshlarimga,  
borgan jahannamingda  
muhtoj bo'lasan.



Istaganingcha uzoqlashaver,  
muammo emas.  
Nafas olayotgan bo'lsang,  
demak, qalbimdasan.

So'rasangiz, hamma:  
"Yaxshiman", deydi.  
Unutgandir, balki hayotini  
qolgan joyidan davom  
ettirayotgandir.  
"Ahvoling qanday?" degan savolga,  
"Yaxshiman", deb javob bersak-da,  
yuragimiz parcha-parchadir,  
tabassum qilayotganimizga  
aldanmang.  
Hayotimizning eng so'ngida  
chiqarishimiz mumkin bo'lgan  
insonlarni kuzatib qo'ydik biz...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Qalbingizni duch kelgan insonga  
beraver mang, sindirib,  
yerga otadilar.  
Shu holingizda qolib ketasiz...



Mendan chorasizlikning  
ta'rifini so'radilar.  
Men esa sening ismingni aytdim...  
Boxabar bo'lishingni istadim.



Vaholanki, she'r edim senga...  
Hech ochilmagan kitobning  
chang bosgan sahifalarida  
o'qilishini kutgan...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Yo'qsan bugun.  
Kecha bo'lmaganing kabi...  
Va ertaga bo'lmasligingdek...



Aytganlaridek:  
"Ba'zi insonlarni taniganingga  
pushaymon bo'lasan. Ba'zilarini esa  
juda kech taniganingga".  
Men seni taniganimga  
pushaymon bo'ldim.  
Kech taniganimga ham...  
Sen tufayli doim pushaymon bo'ldim.  
Ishq bilan birga...



## Ba'zan ketganiga ishonging kelmaydi

O'zingni kichik yolg'onlar bilan ovutasan. Ularga ishonasanda. Ahmoqona fikrlaringga g'arq bo'larsan balki. Chin dildan sevarsan.

Allaqachon kech bo'lgandir. G'alati emasmi? Balki, uning qo'lidan tutadigan boshqa bir inson bordir. Sen esa u ketganiga hanuz ishona olmay, o'zingga yolg'on so'zlamog'dasan. Nima bo'lgan taqdirda ham, bu vaziyat halokatli...

**Azob chekib sevganlar tuyg'ularni  
o'yin qiladigan insonlar bilan  
yuzma-yuz kelmasligiga tilakdoshman.**

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev



## Jonimni qattiq og'ritgan paytlaring bo'ldi

Tabassum qilib, ko'zimdan yosh kelishiga sabab bo'lgan paytlaring ham...

Nima bo'lsa-bo'lsin, men ikkisini ham sevdim. Ammo eng ko'p seni sevdim men...

Bir oqshom yerga tushgan yaproqning shivirlashida sevdim...

Yurgan ko'chalarimizni, tomosha qilgan filmlarimizni, bizni kuldirgan hazillarni, yig'lagan damlarimizni sevdim!..

**Qara, men senga bog'liq bo'lgan  
har bir narsani sevibman.  
Sen hammasini sevishing shart emas,  
biroz bo'lsa ham seni sevishimni sev,  
shu men uchun kifoya...**

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

She'r kabi ayol edi, vassalom!  
Hanuzgacha yozmadim.  
Yozsam, boshqalar o'qirdi...



"Qo'yib yubormaydi" deganlarim,  
"Tashlab ketmaydi" deganlarim  
qatorida kim bo'lsa,  
"Tugamaydi" deganlarim  
sirasida nimaiki bo'lsa,  
barchasi qo'yib yubordi,  
tashlab ketdi, tugadi...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Men o'zgarmadim,  
sen voz kechding...



Senga ishonishmi?  
Tavba?..



Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Sen uni bag'ringga bosding...  
Nafas bo'lsang,  
seni ichimga yutmayman...  
Buni bilasan, shunday emasmi?



Menmi?  
Baxtmi?  
Kuldirmang meni...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

## Seni sevmalik haqidagi fikrni aslo hayolimga keltirmadim

Sendan voz kechish haqidagi fikr aqlimni qo'ya tur, hatto aqlimning chegarasiga kelmadi. Qachonki meni g'azablantirganing yodimga tushsa, menga qilgan tabassumlaringni yodga oldim. Qo'llarimdan tutib, meni o'zing tomon tortishingni o'yladim...

O'pib qo'yishingni xayol qildim...  
Yetarli bo'ldi.

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Meni bag'ringga bossang  
bo'lmaydimi?  
Qo'yib yubormaslik  
uchun...



## Meni sevishing haqida so'zlab ber menga

Masalan, men sen uchun yaratilganimni his ettir menga. Senga oid ekanimni o'ylab yashayin. O'ylab ko'r, axir buni bilgancha yangi kunga ko'z ochmoq... Naqadar mukammal bo'lardi! So'ngra doim yonimda bo'l, borlig'ingdagi iliqlikni his ettir menga.

Filmlar tomosha qilaylik, choy damlaylik birgalikda. Biri, mendan boshqasiga yopiq bo'lgan qalbing kabi yopiq bo'lsin. Boshqasi, sen uchun doimo ochiq bo'lgan qo'llarim kabi ochiq... Popkorn tanovul qilaylik, filmlardan ko'proq ko'zlarimiz so'zlasin. So'ngra telefonlarimizni o'chiraylik. Amin bo'lginki, tongga qadar ko'zlaringga termilib yota olaman.

**Men bundan hech narsa anglamadim,  
yana bir bor quchishamizmi?**

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Sen yolg'iz emassan,  
hayotingda men yo'qman,  
xolos...



Hech shubhasiz,  
eng katta ahmoqligim  
seni o'zimdanda ko'proq  
sevishim edi...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Hayotimizga oid orzu  
bino qildim.  
Nomi pushaymonlik bo'ldi...



Men sensiz uddalay  
olmaganim kabi,  
sen ham mensiz uddalay olma...  
Bizziz...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Ovozini g'oyatda sog'ingan edim,  
qo'ng'iroq qildim.  
Go'shakni ko'tardi.  
Ovozini eshitgach,  
o'ta g'alati hislar og'ushida  
qoldim...

Bir paytlar menga:  
"Seni sevaman", degan sadosiga  
shu qadar intizor edimki...  
So'ngra o'zimga keldim,  
yangi sevgilisi ila baxtli bo'lishini  
tiladim...  
Go'shakni qo'ydim...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Uyingga eltuvchi  
eng qisqa yo'lman,  
kechib o'tmaysan  
mendan...



Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Uyqu dorisiga hojat yo'q.  
Meni sevishingni aytsang bas.  
Shu ondayoq tik oyoqda  
uyquga ketaman...



Kelajakdagi qirq-ellik yil  
mobaynida oyoqlarimni  
bosib uyg'otishing uchun qalbingda  
uyquga ketsam, maylimi?



## Balki seni sevishimni istamassan

Balki ko'ngling yo'qdir. Balki seni sevishim seni hech qachon qiziqtirmas, xayolingga ham kelmaydigan insonni o'ylashing mumkinmi, axir?

Nima bo'lsa bo'lsin, men seni sevaveraman. G'azablanma. Qalbim shunday, voz kecha olmaydi hech. Menga quloq solmaydi. Go'dak kabi qaysar u.

Seni shu qadar kuchli sevamanki, bundan g'azablanasan. G'azablanma...

Ifori yoqimli sochlaring vujudingga tekkanida qaytadan dunyoga kelaman.

Menga tabassum qilganingda cho'ntagi bayram hadyasiga to'lgan bolakay yanglig' sevinaman; ammo sen qo'l yetmas qadar uzoqsan va men doim seni istadim, senga yeta olmasligimni bila turib ham. G'azablanma...

Men bu kecha  
seni tush ko'rdim...

Sevgilim,  
senga savolim bor:  
Tilimda duo bo'lishing  
kerak bo'lgan bir paytda,  
badduo bo'lishga ne hojat?



Kecha "Senikiman" derding.  
Ertaga kimnikisan?



Ketma!  
Sendan nafratlanishni istamayman.  
Qol!  
Qalbingni menga ochishingni  
istayman...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

"Ayollarni tushunmayman", deya  
nola qilish o'rinsiz.

Ayollarni emas,  
ayolingni anglasang kifoya.



Sen uchun o'zgacha inson  
ekanim haqida so'zlarding.

Ha, o'zgacha ekanman.  
Ishonchim komilki, hayotingda  
eng ko'p sevmagan insoning  
menman.



Ora-sira xayolimga kel,  
o'tirib choy ichamiz,  
suratlarni tomosha qilamiz.  
So'ngra sen haqingda suhbatlashamiz.

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

"Har yolg'onda haqiqatning  
bir ulushi bor", deydilar.  
Bilaman, meni biroz bo'lsa ham  
sevgan bo'lishing kerak...



Shunday ketyapsanki,  
umrimdan umr ketayotgandek...



Istaganing qadar ketaver,  
istamaganing qadar kelaveraman  
senga...

## Mendan keyin boshqasi bilan qanday yashashingning qizig'i yo'q

Tunda boshingni yostiqqa qo'yganingda xayolingga kelaman. Senga uzoqdan nazar solaman. Hech kutmagan lahzangda. Uning qo'llarida men bilan o'tkazgan damlaringni o'ylaysan. Birga tinglagan qo'shiqlarimiz quloqlaringda yangraydi.

So'ngra birgalikda qurgan orzularimiz seni vayron qiladi. Hatto unga "Seni sevaman", deganingda ham xayolingga men kelaman. Uning qo'llarini tutganingda qo'llaring uvishadi. Qo'rquvdan uni o'pa olmaysan.

**Sen ham xayolan taroziga qo'yib ko'r.  
Aslida qancha vaqt "biz" bo'ldik?**

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Aslo sevmagan qo'shig'ingni  
u sevgani uchungina tinglaysan.  
Butunlay o'zgacha his...



Nega yuzingni burishtirasan?  
Suratingni quchmoqchiman,  
xolos...



Ba'zan shunday sovuq  
muomala qilasan ki, so'ngra  
tashrifing ham isita olmaydi...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Umidimni uzdim sendan,  
hamma tomon oqayotgan  
qon ichida qoldi...



Seni unutish fikri bilan  
kurashdim, ko'p qon to'kildi.  
Bilmaysan...  
Mag'lubiyatga uchradim...



Bugunning ertasi ham bor.  
Qutuldim deb o'ylama.  
Seni ertaga ham sog'inaman...  
Va undan keyingi kun ham...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Yomg'ir yog'sa  
ochmasdim ko'zlarimni.  
Sen sabab to'kkan ko'zyoshlarimga  
xiyonat bo'lmasin deya...



Sen men tomon essang bas,  
men muzlagancha  
jon berishga ham roziman...

Sevishni qo'ya tur,  
uying joylashgan ko'chaga  
kiringanning oyog'i sinsin...



Mening umidim bor.  
Senda ham bordir biroz...  
Allohga ishonching bo'lsa,  
shuning o'zi kifoya...



Hayqirib, hayqirib uni  
qalbingga yozasan.  
U esa jimjitlik bilan o'chirib  
tashlaydi...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Bu safar biroz odobli  
bo'laman.  
Ortingdan sevmayman...



Mendan xavotir olma.  
Hammasi joyida...  
Sen bilan birga...

So'nggi bor qachon sevding meni?  
Balki, kecha? Balki, o'tgan oydadir?  
Balki, bir yil avval.  
Aslida, bir bor sevdingmi meni?



Eng yomonini ham  
sevardim...  
Zarracha boxabar bo'lmasding...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Ishonasizmi?  
O'zim deya aytmayman.  
Go'zal holda yolg'iz qolaman...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Allohning kaltagi yo'q,  
bandasining ko'zlari bor!



Mendan biz haqimizda  
so'raydilar.  
Men seni ta'riflab beraman,  
xabardor bo'l...

Sen mening ilk  
ko'z og'rig'im emas,  
ilk qalb og'rig'im eding...



Qalbingni o'qidim.  
Hech yerida ismim yozilmagan.  
Bu nimasi axir?



## Bir-birimizni sevishga endi ham imkonimiz bormi?

Sen boshqa insonga tegishli bo'lib... Men sensizlikka ko'nikkanimda... Yana keldilar.

Ko'p yig'ladim. Bedor tunlarim ham sanoqsiz bo'ldi. Suratingga qarab soatlarcha, tongga qadar chuqur xayol-larga sho'ng'igan tunlarim... Seni boshqa inson bag'riga bosdi, mening qo'llarim esa doim senga muhtoj bo'lib qolaverdi.

Senga boshqa inson qo'l uzatdi. Bu haqda o'ylaganim sari telbaga aylandim. Uzoq vaqt mobaynida dar-dimni devorlarga aytdim. Shunga qaramay, hamon seni sevishni istayman. Bu katta ahmoqlik...

Bizni birlashtira olamizmi? Hammasi bu qadar tar-tibsiz bo'lgan bir paytda... Sen boshqasiga, men yo'qli-gingga ko'nikkanimda...

**Aslida birlashtira oladigan "biz" qoldimi?**

## Senga nisbatan hech narsani his etmay qo'ydim

Sen qanchalik kulsang, men ikki karra ortiq kulaman.  
Tongda ko'zlarimni ochar-ochmas telefonimga qaramayman, sendan xabar bormi, deya...

Qiziq, men haqimda o'ylarmikin, deya xayolimga keltirmayman. Meni sog'indingmi, deya qiziqmayman ham.

Ko'nikib bo'ldim. Hayotingga istagan insoningni kiritishda erkinsan. Qayerga borishni istasang, kimga "Xayrli kun" xabarini qoldirishni istasang ista, endi erkinsan.

## Barcha umidlarimni senga bog'ladim

Har narsa ortig'i bilan sinovdan o'tadigan bu hayotda, men tutingan yagona suyanchiq sen bo'lishingni istadim. Bir qush misoli boshpana qurib, o'sha joyda jon berishni istadim. Yozmi, qishmi, hech bir ahamiyati yo'q, doim senda qolishni istadim. So'ngra sen ham menga ko'nikarsan balki, deya kutdim. Meni qabul qilarsan dedim, ammo yo'q, bunday bo'lmadi.

Orzularimning ham yagona manzili sen eding. Hayotimda men tatigan eng totli baxt ham senga oid edi. Tatigan eng achchiq tuyg'ularim ham. Qalbimning qayeriga borsam borayin, menga yashatganlaring bilan seni yonimda olib ketishni istadim.

So'ng toliqqanimni angladim. Hech narsa yaxshi tomonga o'zgarmasligini... Tunlari uyquga ketishdan oldin senga xabar yozmaslik uchun o'z g'ururim bilan olib borgan jangimning kurashlarida doim yengildim. Yaralandim.

*Sevaman.* Birgina so'zingga qanday qilib aldamdim... Vaholanki, sevging borligini zarracha ham his etmasdim. O'sha lahzada yolg'on aralashgani xayolimga kelmagandi. Yo'l qo'ygan eng katta ahmoqligim, senga

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

ishonish edi. Har fursatda men bilan bo'lishingni istadim. Men seni istadim, ammo ko'proq bizni istadim. Men seni sevar ekanman, olamim sening borlig'ingni atrofida aylanardi.

Endi sen yo'q ekansan,  
o'z shahrim ham g'urbatdir  
menga...

## Holbuki, baxt bizni sevgan insonlardadir

Bu o'lkada sevmoq aybdir. Kim, nima desa-desin... Shunday deyman. Bir insonga tuyg'ularingni oshkor qilganingda, unda ba'zi bir ruhiy o'zgarishlar kuzatiladi, xudbinlik ta'siriga tushadi va hokazo... Aslida esa naqadar ajoyib holat, qalbingni bir insonga ochmoq... Go'dak kabi beg'ubor qiladi insonni.

Aytmasang, ichingga yutsang... Qachongacha jim yura olasan? Ichingga yutasan, yutaverasan, oxiri to'lib-toshasan. Bir muddatdan so'ng esa ichingda joy qolmaydi. Va unga aytishni istaysan.

Va so'ngra...

Bum!

**Inson shu qadar nonko'rki...**

**O'zini sevgan insonni qo'llari bilan**

**bir chetga surib,**

**sevmaganni sevadi.**

**Barchamiz yo'l qo'yadigan xato mana shudir.**

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

"Uch deguncha meni xotirla",  
desam, o'z joniga qasd qilar  
ikkidan so'ng raqamlar...

## Bu ham o'tib ketadi

Men har kuni qalbimga seni naqsh kabi chizar ekanman, sen kim bilan, nimaning safosini surasan, bilmayman, ammo Buyuk Rabbim senga shunday jazo bersin ki...

Abgor bo'lib yasha. Sendan na e'tibor kutdim, na sevgi, na yonimda bo'lishingni. Meni biroz bo'lsa ham o'zingga yaqin olishingni istadim, xolos. Hatto shuni ko'p ko'rding, ortiq hech narsa demayman. Ammo o'zingga bu borada so'z bera olmayapman: sendan boshqasining qalbiga kira olmayman, sen kabi o'pa olmayman, iforidan bahra ololmayman va eng muhimi, seva olmayman!

Bu ham o'tib ketadi. Yana nimang qoladi? Seni sevishdan voz kechaman, ko'rasan. Bu tuyg'ular shundayligicha qolmaydi, bu yurak sen tashlab ketganingdagi kabi zarba bermaydi... Sen qo'llaringni boshqa insonga uzatar ekansan, boshqasi bilan ko'z-u qosh bo'lar ekansan, menga xayrli kun tilab yuboradigan xabaringga zor emasman, keragi yo'q.

**O'z kunduzlarimni o'z harakatlarim bilan yoritaman men...**

**Boshqalarning ko'zlariga boqqaningda bizni ko'rishingni tilab...**



## "Mendan yaxshiroq insonlarga loyiqsan", deganding...

Men esa senga savol bermoqchiman: sendan mehrsizroq inson bormi? Meni sendan boshqa shu qadar sevmaydigan inson bormi? Sendan shafqatsizroq insonni topgunimga qadar yagona sevgilim sensan.

"Hayotingga boshqasi kirib keladi", der ekansan, qalbing hech azoblanmadimi? Yurak-bag'ring o'rtanmadimi? Buni qanday qilib xotirjam shaklda ayta olyapsan? Buni nimangga ishonib aytyapsan?

Bo'salaring qoldirgan iz hanuz og'riq berar ekan, bag'ringga bosganingda borlig'imga o'rnashib qolgan iforing hanuz borlig'imda ekan, boshqa insonni hayotimga kiritishimni kutyapsanmi? Bu ishni menga yarashadi deb o'ylayapsanmi haqiqatan ham? Ammo men kutaman, bilasanmi? Sen ko'chada meni ko'rib, yuzingni o'gir, ko'rmaslikka olaver. Seni kutaman.

Meni sevishing uchun emas, pushaymon ekaningni ko'rish uchun! Afsus chek, yagona tilagim shu.

Men sening iforingni borlig'imda olib yurar ekanman, boshqasini quchadigan darajada bemehr; sening bo'salaring qoldirgan izlar hanuz og'rir ekan, bu og'riqni boshqasidan bo'sa olgancha tindiradigan darajada pastkash; sensindirgan qalbni boshqasini sevish orqali ovutadigan darajada nonko'r; sen vayron qilgan orzularni boshqalarning o'yinchog'i qiladigan darajada soxta emasman.

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Va men  
qalbimda senga oid izlarni  
hamon saqlar ekanman,  
boshqasini hayotimga kiritadigan  
darajada g'urursiz emasman.

## Sog'inyapsan. Shu qadar sog'inyapsanki, xayoling ketmoqda

U ketgani kamdek, xayoling ham ketmoqda. Insonning xayoli ketadimi? Yuragi azob chekadimi? Yurak – nazoratchi. Nega u qon aylanishini nazorat qilish bilan gina cheklanmaydi, nega o'z vazifasinigina bajarmaydi?

Inson haqiqatan ham o'z boshini baloga qo'yadi. Illo, bedor bo'laman, umidlarim oqlanmaguniga qadar jonim yonadi, orzular vayron bo'ladi. Qalbim og'riyapti. Anglamayapsan.

**Qalbimni kapalak uyasiga  
aylantirishing mumkin.  
Bu sening qo'lingdan keladi,  
ammo ketyapsan,  
mening esa xayolim ketyapti.**

## Meni sevishingni istardim

Seni sevganim kabi boshqa narsalarni ham sevganimda edi, baxtliroq bo'lardim balki, ammo bu sevgining ortida ta'rifsiz huzur bor edi.

Men seni boringcha qabul qilishni istardim. Birgalikda orzu qilishimizni istardim. Mendan xavotir olishingni, sog'inishingni, o'ylashingni, o'zing bilan sinashingni, menga e'tibor qaratishingni, sen bilan birga film tomosha qilib, ko'proq senga termilishni istardim. Birgalikda qo'shiq tinglab, "Seni hammadan ko'proq sevaman", deyishingni istardim.

**Dunyoning eng yaxshi shifokori kelsa ham,  
berkitamiz sen menda qoldirgan yaralarni...**

## Men senga ishonardim

Sen esa buni yo'qqa chiqarish bilan mashg'ul eding. Orzularimga o't qo'yayotgan eding. Koshki bunday qilmasayding... Qilmasayding... G'ururimni oyoqosti qilganim tunlarda faqat seni izladim.

Sen nohaq bo'lganingda ham bir necha marotaba kechirim so'radim. G'ururdan asar ham qolmadi. Mayli, meni g'urursiz desinlar. Seni sevishimga arzir edi.

**Sen hamma narsaga arzir eding...**

**Qo'ling qo'linga...**

**Borlig'ing borlig'imga...**

## Qachon sevasan meni? Qachon bag'ringga bosasan meni?

Qabrimni quchishing haqida emas gap. Meni men o'lganimdan keyin bag'ringga bosasanmi? Yo'q, istamayman...

Uxlay olmayapman. Kel, bir-birimizni quchib, birlikda uyquga ketaylik. Qo'lidan kelsa, o'lim ayirsin...

**Koshki tegsaydi qo'llaring...**

**Qo'llaringa...**

**Qo'limdan nimadir kelsaydi...**

## Senga bog'liq bo'lgan narsalar

Yuzimga tabassum yugurishini istasam, senga bog'liq bo'lgan har bir narsani unutishim va hayotimning qolgan qismini go'zal tarzda davom ettirishim kerak, ammo buning imkoni yo'qdek go'yo. Sen yonimda bo'lmasang va men bu bilan qoniqib, baxtli bo'la olsam, tongga qadar ko'zyosh to'kishga tayyorman. Agar yonimda qolsang, baxtsizlikka ham roziman.

Men hatto o'zimni sevmas edim. Biroz vaqt o'tgach qarshimdan sen chiqding. Chap ko'ksimdagi qafasimda saqladim seni. Qovurg'amning ichiga yashirdim. Sen bilan bog'liq bo'lgan har bir narsani, hattoki o'zimni ham sevdim.

Biz, sevgilim... Biz...

Sen borliging tufayli shu qadar go'zalmizki...

**Qush uchirsinlar yo'limizga,  
ko'ksimdagi qafasda yashiringan  
go'zallikdagi qushlardan...**



## O'zingni yer yuzidagi ulkan bo'shliqdek his etasan

Hayotingga kimdir kirib kelganidan keyin ba'zi xotiralar, yaxshi-yomon kunlar yashab o'tiladi. Unga, u bilan yashashga ko'nikib qolasan. Go'yoki u senda hech qachon ketmaydigandek taassurot qoldiradi, ammo bir kun kelib seni tark etadi. Ketishini sen ham bilasan. Nima bo'lsa bo'lsin, hech narsaga qaramay sevish, yanada kuchliroq bog'lanishda davom etasan.

Tobora oraga sovuqlik kiradi. Qo'lingdan kelgancha harakat qilasan, ammo befoyda. Munosabatlar ayriliq damlarida so'nggi nafasini beradi. Bir paytlar senda hech qachon ketmaydigandek taassurot qoldirgan inson... biroz vaqt o'tgach, hech qachon seni sevmagandek seni tark etadi. U bilan birga ketishni istaysan, ammo buning imkoni yo'q. Uddalay olmaysan... Azob chekasan. Xabar kutasan. Joning yonadi.

O'zingni yer yuzidagi ulkan bo'shliqdek his etasan. Ovozini eshitging keladi, ammo bilmaysanki, u allaqachon boshqasi bilan suhbat qurishni boshlagan. Qo'llari boshqa qo'llarni tutgan. Dudoqlaridan esa hayotiga endigina kirib kelgan insonning ismi to'kiladi. Sen o'zingni



Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

yanada qadrsiz his etasan. Joning yanada kuchliroq yonadi, ammo qo'lingdan nima ham kelardi?

Biroz vaqt o'tgach, nafratlanishni boshlaganingda aslida, hattoki nafratingga ham arzimasligini aytasan o'zingga o'zing. Uni sevganingdan afsuslanasan. Hattoki o'zingdan g'azablanasan. Uning kabi bemehr bilan birga bo'lganing uchun.

Profiliga kirasan, u yerdagi "do'stlarni qo'shish" yozuvini ko'rgach iching parchalanadi. Qalbing parchalarga bo'linadi, shunday emasmi? Profildagi rasmiga nazar solishga urinasan, ammo ming afsuski, yopiq. So'ngra asosiy bo'limdagi suratlariga qaraysan, "yangi rasm qo'yganmikin", deya qiziqasan. "Qiziq, mendan keyin tabassum qilyapdimikin", deya so'roqlaysan. Eski xabarlarga qaraysan...

**Munosabatlariga doir vaziyatlarni  
ko'zdan kechirasan...**

**So'ng esa,  
bu sahifa nazar doirangdan g'oyib bo'ladi...**

## Balki haq bo'lgan paytlarim bordir, nohaq bo'lganlarim ham

Bularning hech qanday ahamiyati yo'q. Har ikkisi-da ham senga kelaverdim. Kechirim so'radim. Joyimga o'tirdim. Men seni sevib qolgach o'zligimdan, g'ururimdan voz kechdim. Sen uchun amalga oshirganlarimni bizni mahv etish uchun qanchalik e'tiborga olmasang ham, "Biz" degan so'z tilimizda yana qancha yangraydi?", degan savolning javobini topish uchun har qancha urinishimga arzimasang ham, men harakat qildim, ammo sen biz uchun qilgan harakatlarimning hech birini e'tiborga olmading.

Seni har safar kechirganimda o'zimdan xafa bo'ldim. G'ururimdan ranjidim. Har narsadan ranjidim. Seni Sezen kuylagan qo'shiqning naqoratida sevdim. Hayotimdagi ishqing Sezenning qo'shiqlarida kechadi, deb umid qilaman.

*Ket*

*Seni kimlar oldi?*

*Meni unutma.*

**Tinglang; bular jarohatlarga  
eng kuchli ta'sir qiladigan malhamlar.**

## Yolg'izlikning sadosi bo'lganda edi, mening yolg'izligim desibel bo'yicha rekord o'rnatgan bo'lardi...

Chunki yolg'izligim bilan bir butunga aylandim. U borlig'imga shu qadar o'rnashib qolgan ediki, qayerga borsam ham o'zim bilan olib ketadigandek edim. Yolg'izligimga sahifalab misralar yozdim. Seni yo'qotishning alamini chiqarish uchun tinimsiz yozdim. Yozganim sari tinchlanaman deb o'yladim, ammo aksincha, bu azob meni yanada chuqurga torta boshladi. Yozgan so'zlarimga suyanishga urindim, azobimni ular bilan tinchlantirishga harakat qildim. Har holda, sinab ko'rdim.

Ketgan insonning ortidan hech narsa qila olmaysan. Yolg'izlik ostonangga tayanib oladi, majburan ichkariga taklif qilasan uni. Uni yo'qotganingdan keyin damlagan choyingni o'zing bilan o'zing ichasan. Bir necha marotaba ayni yerda yo'qotish... Seni qalbimning eng go'zal yerida sevardim...

Odatda, hamma yolg'iz qoladi. Ba'zan bir necha marotaba g'olib bo'lganlar ham ertami, kechmi, oxir-oqibat yolg'izlikni tatib ko'radi. Ba'zan yolg'izlik uzoq muddatga tark etadi. Ba'zan izlari qoladi, ba'zan osonlikcha xalos bo'lasan. Ba'zan juda chuqur jarohat qoldirishi mumkin.

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Davosi topilmaydi. Bunday yolg'izlik aro inson o'ziga kelganida ketadigan joyi qolmaydi va yana choy qo'yadi o'zi uchun.

Seni yo'qotish sentabr oqshomida yerga tushgan daraxt yaprog'ini eslatadi. O'sha yaproqni olib, daraxtning shoxiga qayta qo'yish qo'limdan kelmaydi. U og'irlik kuchiga qarshilik ko'rsatmay havoda parvoz qilar ekan, men faqatgina kuzataman, xolos.

**Va endi men ham yo'qotganlar qatoridaman.**

**Butunlay yolg'izman.**

**Yana bir finjon choy quyaymi?**

## Har narsamni fido qilishga tayyor ekanimni bilasan

Nimalarni bermasligim mumkin... Men tomon kelishingni kuzatish evaziga faqat. Bundan ortiq umidim bo'lmaydi, yonimga kelishing meni dunyoning eng baxtli erkagiga aylantiradi. Ketishing haqida o'ylashni istamayman. O'ylasam vaziyatdan chiqa olmayman. Xayolimga bergan so'zlaring va ortingdan hech narsa qoldirmay ketishing keladi. Mayli, bu mavzuni ochmaylik. Bu o'lkada bir qancha muammo bo'la turib, men sening yo'qligingni muammo deb bildim, qolgan hamma narsadan voz kechdim. O'tirib, ketishingni va kelmasligingni kuzatdim.

Yagona muammo bu emas, albatta, ammo barcha muammolarimni bir chetga surib, yo'qligingni birinchi darajaga qo'ydim. Meni bir jumboqning parchasi o'laroq tasavvur qiladigan bo'lsak, yechimim uchun yetishmayotgan parcha sen ekaningni taxmin qilish g'oyat tabiiydir. Sen qoldirgan yaralarning og'riqlari ila bir butunga aйландим. Hammamiz bilamizki, har bir jumboqning kimsa topa olmaydigan bir parchasi bo'ladi... Senga nisbatan umidlarim katta emasdi. Seni sevish uchun g'ururimni, o'zimni, hamma narsamni qadrsizlantirdim. Seni yonimda olib qolish uchun har kuni takroran oshiq bo'ldim. Seni sevdim, o'zgalarni unutdim. Seni sevdim, qolgan

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

barcha muammolarimni unutdim. Seni sevdim, tashqarida boshimni xam qilgancha kezdim. Seni sevdim, hech bir ayolga senga boqqan nazar bilan boqmadim. Bu nazar bilan qaragan bo'lsam, seni boshqasi bilan ko'rayin.

Men seni sevar ekanman, hamma narsani chetga surib qo'ydim. Sendan boshqa hamma narsani unutdim. Seni unutish telbalikning cho'qqisi bo'lardi. Menga seni unutishim haqida so'zlasang, javoban kulib qo'yaman, xolos. Men sen bilan bir butunga aylandim, senga tobora kuchliroq bog'lanib, qalbimda yetishtirdim seni. Balki oshirib yuborgandirman. Ha, men bunga doim yo'l qo'yaman. Bir qarab ko'r o'zing! Yozayotgan ushbu misralarimda ham "sen, seni" kabi so'zlarni naqadar ko'p qo'lladim. Bilmaysan. Mening so'zlarim, qalbimdan egallagan hududing, baxtim, dardim, pushaymonligim, ahmoqligim, tunda uyquga ketishdan oldin seni yonimda tasavvur qilib uxlaganlarim, yo'qligi bilan meni dono qilgan sensan, sen... Hattoki alifbom ham sening ismingdagi harflardan iboratdir.

**Sen menga  
qaytib kelsang bas.  
Hayotim yo'l bo'lsin poyingga...**



## O'zingni qiynama

O'zingni qiynayapsan. Senga loyiq bo'lmagan o'sha bir chaqaga ham arzimaydigan insonni qo'yib yubor, bunday odamlar tufayli go'zal hayotingga qora parda tortiladi. So'ngra barcha ranglarga ko'r bo'lasan.

Bunday qilma. Sen ayolsan sen, nozik xilqat. Sening shampun ifori kelib turadigan sochlaring kifoya. Qo'yib yubor uni, ketsin. Sen qo'lingdan kelganini qilding. Hattoki ortig'ini. Sen buning evaziga olgan xotirjamlik bilan hayotingni yashashda davom et. U qilishi kerak bo'lgan ishni qilmagani uchun vijdon azobi bilan yashaydi. Sen o'z haqingda qayg'urishing uni tarixga ko'madi.

Orzulari o'yin qilingan ayollarga... Har qanday shaharning har qanday ko'chasida boshqa bir ayol bilan sayr qilayotib, siz haqingizda: "Ey-voh! U unutib bo'ladigan ayolmidi-ya!?" deyishlarini tilab qolaman.

**Tabassum qil...**

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Bilasanmi,  
seni sog'inmadim.  
Aslida barcha ayb  
qo'shiqlarda...



Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Hamma narsa unutiladi.

Bir paytlar:

"Borlig'imsan", derdi.

O'zimdanda bilaman.

## Qalbi singan ayollarning jarohatlarini davolang

Ishqni ko'ring. Ayollar o'tmishidagi kechinmalari sababli hamma narsadan yuz o'girishadi.

Ayol kishining jarohatiga hamdard bo'lganingdan so'ng u senga oshiq bo'lib qolishi mumkin. Otasiz o'sgan ayollar yanglish insonlarga qalbini beradi. Yaralangan ayollar ham... Siz esa ayollar yaqin kelgan yanglish sohil bo'lmang. Bir ayolning qalbini dengiz o'laroq qabul qiling. Uning qalbiga langar oting. O'sha yerda qoling. Cho'kib ketish xavfi borligini bilgan holda... chunki yaralanish ehtimolini siz ham chetlab o'ta olmaysiz. Va buni ko'rgach, his etgach, ayolning baxt torlari chalina boshlaydi.

**Aytmoqchi bo'lganim shuki,  
o'tmishda og'ir zarbalar olgan ayollar  
go'zal sevadi.**

**Uning yaralariga malham bo'l.  
Ushbu ayol senga beradigan baxtning  
totiga to'ymaysan.**

## Yashab o'tilishi istalgan holatlar bugun ham yashalmadi

Kutilgan inson yana kelmadi. Sayr qilish mumkin bo'lgan buyuk dengiz sohili bor. Ichiladigan choylar, tinglanadigan qo'shiqlar bor. Ko'zlar-ko'zlarga tushishi kerak bo'lgan onlar bor. Sen borsan, borliging qadar yo'qsan. Ichimga sig'dira olmayman. Shu bois seni osmonimga olib keldim. Seni unutishim mumkinmi, mumkin emasmi, o'ylab ko'r. Sevgan insonini osmon qilgan odam, qanday qilib sevgilisini unutishi mumkin? Endi mavzu yana men haqimda. Aslida masala seni unutish-unutmasligim emas. Masala sensan. Masala – senga bog'liq hamma narsa... Masala – osmon. Masala – choy... Qo'shiqlar – masala, sensizlik – masala...

Barcha muammolaringni bir chetga surib qo'y, yashayotgan shahringdagi iqlim sharoitlariga e'tibor bermay, ertaga havo qanday bo'lsa, unga mos ravishda kiyin. Chiqib, yonimga kel. Hamma narsani bir chetga surib qo'ydim. Yechimini bilmagan muammolarim orasida seni tanladim, o'zimga oldim. Aslida bu ham bir muammo. "Nega?" deb so'rasang, sen mening eng katta muammo-imsan...

**Ertaga havo ochiq, choylar ochiq,  
qalbim senga zotan ochiq...  
Hal qilishimiz kerak bo'lgan bir masala bor...**

Har insonning bir  
pushmon<sup>1</sup>i bor...  
Pushmonim sensan.

---

<sup>1</sup> Pushaymon.

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

**Biz sevgiga och  
insonlarmiz.  
Shu sabablidir  
keragidan ortiq  
sevishimiz...**

## "Ishq nima?" deya so'radilar. Sen haqingda ayta olmadim

Yo'q, g'azablanma. Rashk qildim. Sen boshqalarga so'zlab beriladigan darajada qadrsiz emassan men uchun. Agar seni ularga so'zlab berganimda, ularga oid bo'lar-ding... "Sochlari ishq", derdim... "Meni bag'riga bosgani-da, yuzimda raqs etadigan sochlari... Menga nazar sol-ganida titraydigan ko'zlari", derdim. "Ishq, ismimni uning dudoqlaridan eshitishim", derdim. Men seni ko'ksimdagi qafasimga zanjirband qildim. Sen haqingda na o'zinga so'zladim, na boshqalarga. Ichimdagi sevgining ta'rifi, o'lchami yo'q edi. Senga bo'lgan sevgimni faqatgina Al-loh bilardi, men bilardim. Bu sevgini tilga keltira olmas-dim. Men bunday sevgini ko'rmadim. Sen ko'rganmisan haqiqatdan ham? Kim kimni sevibdi bu qadar?

Sen bilan baxtli bo'lish mumkin edi. Hamma nar-sa bizning qo'limizda edi. O'ylab ko'r o'zing, bitta sha-harda bo'la turib ayromiz. Ahmoqlikning o'zginasi. Bir-galikda kezish, iforingni borlig'imga singdirish imkoni bo'la turib... Bu shaharda biz bor ekanmiz, sen yo'qsan. Ishq bo'lsin senga. Yo'q, to'xta! Ishq falon shart emas, sen bo'lsang kifoya. Ikkimiz mavjud bo'lgan joyda ishq bo'lmasligi mumkinmi? Faqatgina seni sog'inganim, tel-balarcha sevishim, hayotimga boshqasini kiritmasligim-ni bilasan. Ko'p narsani bilasan. Bundan xabaring bor.

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Bu sevgini javobsiz qoldiradigan darajada yuraksizsan.  
Mayli, sen meni sevma. Seni shundoq ham sevaveraman.  
Men seni boshqasi o'qiydi, deya yozishdan qo'rqdim...

**Ko'p gapirmayman.  
Mendan "Ishq nima?" deb so'radilar.  
Men sen haqingda so'zlab berdim,  
xabaring bo'lsin...  
Sen sababli kecha-yu kunduz,  
birga uyquga ketgan yostig'imizda ko'zyosh  
to'kkancha, qo'lingda qo'g'irchoq bo'lgan  
kimsa orqali seni anglatdim.**

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

O'zimni aybdor his  
etyapman.  
Va bunda sening hissang  
g'oyatda ulkan...



## Meni tanidingmi?


Buyuk orzularni kichik qalbingga sig'dirishga uringan ahmoqning o'zginasiman. Meni qanday qilib tanimasliging mumkin? Bu hayotda seni eng ko'p sevgan insonman. Sendan hech qanday javob kutmay, umidlar aro sevgan, senga atrofingdagi insonlardan munosibroq bo'lgan, ahmoq bir insonman. Seni har kuni yotoqdan turganingdan boshlab, o'sha yotoqqa takror kirib, boshingni yostiqqa qo'yguningga qadar hech narsaga qaramay sevgan insonman.

**Menman, men sening sevmaganing.  
Uni-buni bahona qilib, bag'ringga bosmaganing.**

**Nima sababdan kelganimga  
qiziqayotgan bo'lsang...  
Aslida men sendan ketmagandim**

Xavotir oldim, xolos. Garchi baxtli bo'lishing lozim, meni sevmading. Bahonalaring o'z o'rnini topdi. Meni mag'lub qildilar. Sen to'rt karra baxtli bo'lishing lozim, meni sevmay, mendan boshqa hammani hayotingga kiritding. Ularga: "Seni sevaman", der ekansan, menga kelganda: "Qo'limdan kelmaydi", deding. Sen meni bir finjon choy kabi kutdirding. Men esa sovidim. Achidim va eskirdim so'ngra.

**Anglaganingdek,  
bu sevgining na toti qoldi, na tuzi.  
Endi so'rasalar,  
sen bilan bir qalbni baham ko'rish tugul,  
bir qo'shiqni tinglash ehtimolimiz yo'q hatto...**



## Barcha kamchiliklaring bilan sevdim seni

Xatolaringni, jonimga o't qo'yishlaringni, mensimasligingni, qadrlamasligingni... Ya'ni, sevgilim, anglaganingdek, menga qancha zarar bergan bo'lsang, seni sevganimda ularni ham sevgiga qo'shdim. Eng ko'p tirnoqlaringga surgan bo'yog'ing rangini sevdim. Har uchrashuvimizda kiymimda qoladigan bir tola sochingni sevdim.

Ishqni eng go'zal tarzda biz yashab o'tdik. Eng go'zal ayriliqni ham biz tatib ko'rdik. Zotan biz boshlamay turib nuqta qo'ydik. Bizmi? Biz ayrilayotgandagina biz edik. Men biroz avval aytgan so'zlarimning hech birida "biz" degan so'zdan foydalanmadim aslida. Bu meni qiynagan masalalardan biridir. Menga eng ko'p azob bergan narsa nima edi, bilasanmi? Shu qadar yaqin bo'la turib, oramizga masofalar qo'yishimiz. Nafas qadar yaqin bo'lish imkoni qo'limizda ekan, bir-birimizni quchishimiz, qo'laring qo'limda bo'lishi kerak ekan, oramizga devorlar qurishing yana bir ahmoqlikdir.

Bizni sarson qilma.

Oramizga masofa qo'yma, bosib o'tib, yana kelib sevaman seni. Bilasan, yuzsizman. Qo'limdan keladi.

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

"Sevma" desang, battar sevaman. Ba'zan shunday paytlar bo'ladi-ki, hatto nafas olishdan charchaysan... Men ham xuddi shundayman. Ya'ni anglaganingdek, sevgingga ehtiyojim bor. Atrofimdagi insonlarni kuzataman ba'zan. Ularning baxtini ko'rib, xayolga cho'maman. Ular o'pib to'ymaydi, men esa sevib. Sen yonimda bo'lmasang ham, seni sevishga muhtojman men. To'ya olmayman...

**Men senga muhtojman, sen menga azob...  
Malham bo'lishing kerak menga,  
ammo chuqur jarohatsan...**

## Odatdagi kunlardan biri edi

Yo'qligingni his etmaslik uchun nimadirlar qilay, dedim. Chiqib, biroz sayr qildim, seni yonimda deb tasavvur qildim. Sukut biroz sezilardi, ammo mayli. Bir muddat chag'alaylarni kuzatgach, sayr qilishda davom etdim. xayolimga kelib, kinoteatrga yo'l oldim, ikki kishilik chipta xarid qildim.

Chipta qaysi filmniki ekaniga e'tibor ham qaratmadim. Film boshlanishiga oz qolgandi. Tomoshabinlar zaliga kirishdan oldin ikkita katta idishda popkorn sotib oldim. Sen xush ko'rasan. Zalga kirdim. Go'yo sen yonimda o'tirgandek, filmni tomosha qilishda davom etdim. So'ngra boshimni yelkangga qo'yishni istadim, shu tariqa uyquga ketibman. Uyg'onganida film o'z nihoyasiga yetib bo'lgan, zal bo'shagan edi. O'zimga keldim va u yerdan chiqdim.

So'ngra ochlik hissini tuydim. Taom tanovul qilishim mumkin bo'lgan joyga yo'l oldim. Ikki kishilik taomga buyurtma berdim. Odatda kam ovqatlanishimga qaramay, ikkisini ham yedim. Kam taom iste'mol qilishim sababli mendan g'azablanar eding, esingdami? Qara, sening ham taomingni men yedim. U yerdan ham chiqdim. Yana biroz sayr qildim. Sovqotding deb tasavvur qilib, nimchamni yechdim. Senga kiydirdim. Nimcha qo'limda edi. Sovqotishimning sababini sening sovqotganingga yo'ydim.

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Soat kech bo'lmagandi, ammo jamoat transporti tugashiga oz qolgandi. So'nggi avtobusning kunlik rejasi yakunlanishiga hali yigirma besh daqiqa bor edi. Har doim boradigan bog'imizga boraylik, dedim o'zimga o'zim. Doim ikkimiz o'tirgan, bir-birimizga sevgi izhor qilgan, ya'ni sen meni menga sevishingni aytib, tizzalaringda uxlatgan, yulduzlarni kuzatgan o'sha o'rindig'imizga borib, besh daqiqa o'tirishga qaror qildim. Ohista yo'ldim. O'sha bog'ga yaqinlashganim sari chap yonimda og'riqni his etdim. Nega, bilmayman.

Bog'ga keldim, ammo o'rindiq band edi. Ikki kishi o'tirardi. Qo'rqqan narsam boshimga kelishidan qo'rqardim, shunday bo'ldi ham. Ulardan biri senga o'xshardi. Yoningdagi insonning qo'llari sening qo'lingda edi. Men o'zimni ovutishga urinar ekanman, sen uning qo'llaridan tutarding...

Ikkingizni ko'rdim. Bir-biringizga mos edingiz. Sen go'zalsan-ku, yoningda kim bo'lsa, hammasi senga mos. O'sha lahzada bo'g'zimga nimadir tiqildi. Baxtlidek ko'rinarding. Ko'zlaring kulardi. Ko'rdim. O'sha damda namlangan ko'zlarim va ma'yus tabassum ila o'zimga keldim. Yo'qligingni his etmaslik uchun qilgan harakatlarimning hech birini uddalay olmaganimni angladim. O'sha damda qo'llarim muzladi, yo'qligingni his etdim. Nimchamni kiyib oldim. Qadam tashlashda davom etdim, avtobus bekati tomon yurar ekanman, yonimda yo'q eding...

**Yo'qligingni his etdim...**

## Eng katta boylik, sevilganingni his etishdir

Gap senga borib taqalar ekan, bu gapni senga nisbatan ayta olmayman. Gap senga borib taqalar ekan, vaziyat o'zgaradi. Sen istamasang ham, bu dunyoda borligimni ko'rmaslikka olsang ham, mening nigohim doim senga qaratilgan edi. Na otamdan qolgan uy, na avtomobil, hech birini istamadim. Seni shu qadar yo'qchilikda sevdimki, vaslingni qalbimda bor etdim va sening bundan aslo xabaring bo'lmadi. Mayli, sen yonimdasan. Nafas olganim havoda, xayollarimda seni his etyapman.

**Sening sevging  
eng ulkan davlatimdir.**

## Meni sevma

Bilasan, zararim tegadi. Ko'nikaman. Bog'lanib qolaman. So'ngra tugunga aylanaman. Unday qilma, meni sevma. Buni o'zingga ham, menga ham ravo ko'rma. Iforing ham o'zingda qolsin, balki to'g'risi shudir, sevging ham.

Sen ham ketasan, men bedor bo'lib qolaman, xonalarga qamalib, misralar yozaman. Bir qancha behuda so'zlar. Ko'chaga chiqqanimda qo'llaringni izlayman. Sen biroz muddatdan so'ng ketasan, atrofdan g'oyib bo'lasan. Men esa shu holatda qolib ketaman.

Xonamda to'kilgan soch tolalaringni to'playman. To'plar ekanman, mening armonlarim yomg'ir bo'lib yog'a boshlaydi. So'ngra "O'zingni ehtiyot qil", "Yanada yaxshiroq insonlarga loyiqsan", deysan. Bularning hech biriga hojat yo'q. Senga yomg'irda ivigandek oshiq bo'lamen. Quriy olmayman. Jonim o't oladi. Na mendan senga Majnun, na sendan menga Layli bo'ladi...

Yaxshi qol, kelmasdan oldin ketganim,  
yonimda bo'lmay turib, bordek his etganim...  
Qalb og'rig'im,  
qalbsizim,  
kechmagan izim...



Mayin, go'zal tabassum bilan  
g'azablanib, "Men nima qildim?"  
deya so'radi.

"Muammo shunda-da", dedim.  
"Shunda... Hech nima qilmading..."

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Kulganimda yig'lashingni  
tilayman...  
Boshqa hech narsa deya  
olmayman.

She'r bo'lsang yozilmagan,  
duo bo'lsang "Omin" deyilmagan,  
ishq bo'lsang sevilinmagan...



"Sevmayman" deyishni qo'yning.  
Hatto "Sevmayman"  
deganingizda ham chorasizlarcha  
sevganingizni bilaman.

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Eng yomoni nima,  
bilasanmi?  
Hatto ovozing ham  
boshqasiga tegishli endi...



Hech kimi qolmaguncha  
ortga qaytganlarni aslo  
kechirmang.

Kichik bir eslatma:  
allaqachon siz uning  
kimigadir aylandingiz...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

**"O'zingni ehtiyot qil",  
dema menga.**

**Bilasan,  
o'zimdanda ko'ra ko'proq  
seni ehtiyot qilaman...**



## Nafrat bilan sevdim

Naqadar ajoyib. Men qo'l uzatishga qiymaganim, endi boshqalarning qo'llarida. Men ko'zlariga qaraganda erib ketganim, boshqalarning yonida. Qiziq, menga berilgan va'dalar endi unga ham berilarmikin? Eng ko'p nimaga qiziqyapman, bilasanmi? "Ajabo, meni sog'insanmi?". Eng ko'p mana shu savolni berdim o'zimga. Ey-voh...

"Sog'insa, yonida boshqa inson bo'larmidi?" deya javob berdim beixtiyor. Birga o'tkazgan damlarimizga bo'lgan hurmatim haqqi seni va ularni ichimda saqladim. Borgan tamaddixonalarimizga majburiyat yuzasidan kirganimda ichimda paydo bo'lgan og'riqning hissini ta'riflay olmayman.

Men seni bu shaharning iqlim sharoitlariga qaramay, har kuni ko'tariladigan quyosh, yog'adigan yomg'ir, tushadigan shabnamning eng kichik tomchisi ila sevdim. Dardimni ichimga zanjirband qildim. Bu jonimni yanada ko'proq yondirdi. Yanada kuchliroq nafratlandim, yanada kuchliroq sevdim. Men sen haqingda go'zal xayollar qurdim. Sen hech birini qadrlamading. Loyiqmidim? Yo'q.

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Aksariyatimiz hayotda nohaqliklarni boshdan kechiramiz, ammo sen biroz ilgarilab ketding. Vaholanki, o'zingdan nafratlantirish uchun sarflagan kuchingni menga sodiq qolish, yonimda bo'lish, meni sevish uchun sarflaganingda edi, onang ikkinchi onam bo'lishi uchun hech qanday to'siq yo'q edi o'rtada.

Bilasan, men sen bilan u yo'lni bosib o'tgan bo'lardim. Men doim sen bilan qadam tashlagan bo'lardim. Sen yonimda bo'lsang kifoya edi.

Yonimdagi insonlarga ba'zan beixtiyor ismingni aytishimga bir bahya qolar, ammo o'zimni to'xtatar edim. Isming qalbimda, hatto tilimga chiqarmayman, tashvishlanma. Sen yoningdagi inson bilan yo'lingda davom etaver...

Men seni ichimdagi nafrat bilan sevishda davom etayin. Senga uxlayotganingda termilmasin, xo'pmi? Buni eng go'zal tarzda men qila olaman. Eng go'zal tarzda sevadigan ham menman. Mayli, muhimi bu emas, gapni cho'zishga hojat yo'q...

**Baxtli bo'l,  
nafratim.**

**Baxtli bo'l,  
qalb og'rig'im...**

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Kelishga urinma,  
hali ko'p ketasan...  
Jonim yonmoqda,  
bilmaysan...



Menga ishq haqida  
so'zlama, ko'nglimni behuzur  
qilyapsan.



Men seni  
adashib tushunib qolishdan  
qo'rqdim eng ko'p...

## U sevgan nimaiki bo'lsa, hammasini sevdik

Tan olish kerak bo'lsa, o'sha navolarni u sevgani uchungina tingladik. Ortiqcha gap-so'zsiz aytamanki, u nimani sevgan bo'lsa, men ham o'sha narsani sevdim. Men sevmagan narsa bo'lsa ham. Har narsani sevdim va qalbim toliqdi, tushunyapsanmi? Toliqdi va ko'proq se-vishga majolim qolmadi. U biz sevadigan narsalarni se-vishiga hojat yo'q edi, bizni biroz sevsa, bu biz uchun bir umrga yetarli edi...

**Bu ham bizning ahmoqligimiz.  
Aybga buyurmang,  
Biz sevdik...**

Sening seviladigan  
jihating yo'q edi.  
Seni sevish uchun sabablar yaratdim  
o'z qalbimda.  
Bundan xabaring yo'q edi.  
Men seni sevish uchun bahonalar  
o'ylab topdim.  
Yolg'onlaring ham ishonchli emasdi.  
Men seni sevishni istadim.  
Sevdim. Ketding...



"Ahvoling qanday?" degan savolga,  
"Yaxshiman" degach, qanchalik  
Yaxshi bo'lish mumkin bo'lsa,  
shu qadar yaxshiman men...

Hayqirib-hayqirib,  
so'ngra jim bo'ldim.  
Ahvolimni sezdirmadim.  
So'rasang, yaxshiman...

## Sen yuragimda shunday bir she'r bo'lasanki...

Dunyoning eng go'zal so'zlarini jamlab, eng ma'noli jummalarni tuzsam ham, sening go'zalliging qarshisida mendan shoir chiqmaydi.

Biroq sen shunday bir she'r bo'lasanki, ana shu lahza-da qalbim moychechaklar ochadi. Shundagina hamma narsa ma'noli bo'ladi. Ketsang ketaver. Birgina bo'lsa ham moychechakni qo'limga olib, joniga azob bersam, odam emasman.

**Qanday ketgan bo'lsang,  
shunday ortga qaytasan,  
ammo men seni kuta o'lamanmi-yo'qmi,  
bilmadim.**

## "Mening kichik sevgilim"

Mor va Otesi<sup>1</sup>ning biz birga eshitgan qo'shig'ini qo'ydim. Xonaning chirog'ini o'chirdim. Deraza ochiq edi. Surating bo'lsa, oqshomdan beri kompyuterim monitorida ochiq turibdi. Tashqarida yog'ayotgan mayin yomg'irning sadosi yangrayotgan navo bilan qo'shilib, quloqlaringa duet kabi eshitilardi. Suratingga qaradim. Ko'zlaringga tikilib qoldim biroz. Qaradim, qaradim, qarayverdim...

Bir paytlar ko'zlaringga qaraganimda o'zimni ko'rardim, endi esa yolg'izligimni ko'ryapman. Dardni ko'ryapman. Afsuslarimni ko'ryapman. Jonim olovlanayapti, sening ko'zlaringga to'xtalar ekanman, jonim tinmay yonadi. So'ngra nigohim sochlaringga qadaldi. Bir paytlar yelkanga bosh qo'yib uyquga ketganingda, sochlaring ifori dimog'imga kelardi...

Sochlaring yostig'im kabi edi, endi esa boshqalar uning iforidan bahramand... Davomini aytishni istamayman. Navo o'z nihoyasiga yetdi. Ko'zlaringga qaradim, men tamom bo'ldim. Yomg'ir tugadi, biz tugadik...

**Sen  
menda yakunlanishda  
hanuz davom etyapsan...**

---

<sup>1</sup> Turkiya rok guruhi. *Tarjimon izohi.*

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Jozibador sevgi izhorlariga  
hojat yo'q edi.  
"Uxlama, suhbatlashaylik",  
desang yetardi...



Yomg'ir yog'moqda.  
Sayr qilish uchun yetarlicha  
bahona emasmi bu?

Hatto sevishni ham  
bilmaydigan insonlarning  
boshimizda ishq shifokori bo'lishi  
naqadar g'alati, shunday emasmi?



Sen meni quchganingda  
qalbim shunchalik baxtli  
bo'lardiki, baxtdan go'yo  
osmonlarga uchardim.  
Sevish nimani anglatadi?  
Kel, meni bag'ringga bos,  
ko'rsinlar...



Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Sen kul,  
umrim uzayadi.



"Arzimaydi", deydilar,  
kulib turgan ko'zlaringni  
ko'rmaganlar...

Yo'qligingda bosh egish  
bo'ynimning burchidir...



Sevganining ustiga gul  
hidlaganlarning<sup>1</sup>  
har tarafiga gul tikanlari  
botsin...

---

<sup>1</sup> Sevganining ustiga gul hidlamoq – xiyonat qilmoq. Tarjimon izohi

Men jummlalarimni  
sen bilan boshlar, sen esa  
meni boshqasi bilan  
nuqtalarding...



Oqshom ichilgan choy,  
tunda tinglangan Sezen  
va umr bo'yi sevilgan sen...  
Hamma narsaning badalidir...



Mening hayotim  
sening ikki kipriging orasida edi...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

"Sevdim", deya olaman, xolos.  
Bu bilan qanoatlana olaman.  
Boshqalar bag'riga bosadi,  
o'padi, kezadi.  
Men: "Sevdim", deya,  
yo'qliging bilan  
qanoatlanmoqdaman...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

**Men taniqli  
yozuvchi bo'lay,  
Otang qattiqqo'l bo'lsa,  
mayli, bermasin menga...**

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Sen ketish uchun  
bahonalar izlarkansan,  
men seni sevish uchun hech bir  
sabab bo'lmasa ham  
sevdim...



Bir kuni qoshimga kel,  
"Sening yoningga keldim", deb ayt,  
o'sha lahzada seni sevmagan yurakka  
hatto bir daqiqa ham  
nafas olish nasib etmasin!

## Sen mening...

Viloyatim, tumanim, shahrim, ko'cham, mahallam, mehmonxonam, uyim, rafiqam, sevganim, sevgilim, bir tarafli yo'lim, boshi berk ko'cham, bayram sovg'alarim, bolaligim, onam, otam, singlim, oilam eding.

**Men sening hech kiming edim.  
Hech bir narsang...**

## Ba'zi insonlar hayotimizga go'zal tarzda kirib keladilar

Balki kutmagan paytimizda, balki inson o'zi istar o'z joni o't olishini. Baxtlimiz, deb o'ylaymiz. Vaholanki, unday emas. Baxtmi? Baxt bizning ayni jumlamizga hech yarashmayapti.

Kelishi go'zal bo'lgan inson bir kun kelib tark etishi bilan seni tanovul qiladigan taoming, shirin uyqularing, tinglagan musiqalaring, tomosha qilgan filmlaring, qisqasi, seni baxtli qilgan nimaiki bo'lsa, hammasidan nafrat ettirishi haqiqatdir.

Sening bundan xabaring yo'qdir, yoki bu yakuni ma'lum filmni tomosha qilish kabi narsadir. Ketishini bila turib unga ko'nikish. Barchamiz o'tmishimizdan qolgan jarohat izlariga qaramay, hayotimizga yangi kelgan insonlarga ishonishni istaymiz. Yangi boshlanishlar, yangi ishqqa yelkanlar ochishni istaymiz-u, kemamiz suvga chiqishi bilan suvga to'lib, cho'kadi.

Xo'sh, muammo nimada? Muammo biz keragidan ortiq yaxshi niyatda bo'lishimizda. Ortig'i bilan sevimimizda. Insonlar qadrga loyiq bo'lmagan mavjudotlar ekani haqidagi haqiqatga ko'z yumishimizda. Hammasi bergan qadringni barbod qiladilar.


Ichimizda shu qadar yaxshi niyatli insonlarmizki, o'tmishda olgan jarohatlarimiz bitmasidan hayotimizga



Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

yangi kirib kelgan insonlarni o'zimizdek ko'rib, keragidan ortiq sevamiz, keragidan ortiq ahamiyat beramiz, ko'nikib qolamiz. Qisqacha qilib aytganda, ahamiyat berish bizga to'g'ri kelmaydi.

**Chunki insonlar shunga loyiq.  
Kelishda go'zal keladilar, ketish sababi orqali  
esa haqiqiy yuzini ko'rsatadilar.  
Biz ularga fursat berib,  
kim ekanini kuzatamiz.  
Jonimiz yonishiga hamohang ravishda...**



## Ketmaganmiding?

Senga eng ko'p ehtiyoj sezgan damlarimda yonimdamiding? Ketmaganmiding? Sen yonimda bo'lsang ham borligingdan ko'proq yo'qligingni his etdim men. "Mayli", dedim, joning omon bo'lsin. Shu qadar telbalarcha va sodda sevdim. Men bilan birga bo'lish uchun oz bo'lsa ham harakat qilmasang-da, men o'zim urindim, harakat qildim, shunday sevdim seni.

**Bularning barchasiga qaramay, arzidimi?**  
**Aslo.**

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Bolaka kabi

Menga she'r yozdirma,  
tuzli qahva ichir!

## Bolakay kabi

Bolalar "Qilma", degan ishingni atayin qiladi. Yuragim ham xuddi shunday. "Unday qilma, hoy, qara axir, bundan senga huzur bo'lmaydi", deyapman, ammo qu-loq solmayapti. Ko'ngil bu. Aytganingni qildira olmaysan.

**Seni sevib ba'zan o'zimni unutib qo'yaman.**

**Ba'zan insonlarni unutaman.**

**Bu dunyoni unutaman.**

**Sen bilan ovvoraman, shunday sog'inaman.**

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev


**Ichimda bir ovoz  
"Seni sevaman", deydi...**

## Ko'nikib qolganingdan so'ng ayrilish naqadar mushkul

Sevish go'zal va yoqimlidir, ammo nihoyasi-chi? Xotiralar, qo'shiqlar, restoranlar, pushaymonliklar... Bular yaxshi narsa emas. Mayli, sevasan, mayli, go'zal onlarni boshdan kechirasan, ko'nikasan, bu ham mayli. "Sen mendan ham yaxshiroq insonlarga loyiqsan", degan gapni qanday hazm qilish mumkin?

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Ba'zan yo'qotishdan  
qanchalik qo'rqsang,  
qo'rqqaning boshingga  
keladi.



**Ba'zi qo'shiqlar bo'ladi-ki,  
uch daqiqada hayotingni  
ostin-ustun qilib yuboradi...  
Xuddi shunday**

Shunday qo'shiqlar borki, men anglata olmaganlarimni anglatadi, uch daqiqada sassiz hayotimni qisqacha tarzda yoritadi...

"Menga sevishingni uch daqiqa ichida qanday ifodalaysan?", deb so'rasang, men shu uch daqiqa mobaynida seni shu qadar qattiq quchamanki, qovurg'alaring sinmoqdan beri bo'ladi. Anglaganingdek, uch daqiqalik sukut saqlashga o'tamiz, xulosa o'rnida uchta so'z:

**Seni qattiq sog'indim...**



Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

She'rim bo'l mening,  
Shoiring bo'lay sening.  
O'pay sening misralaringni.  
Ishon, tolmasman seni yozmoqdan,  
sevmoqdan.  
Ko'ryapsanmi?  
Aytgan har bir so'zim sen-la boshlanar.  
Menda ham mitti yurak bor,  
Har kecha uyqudan oldin sen uchun urar.  
Yolvoraman, uni to'xtatma.  
Meni to'xtatma,  
Izn ber, seni sevayin.  
Qarshilik qilma.  
Izn ber, kaftlarimda iforing qolsin.  
Izn ber, qishki liboslarimdan iforing kelsin.  
Sening iforing-la uyga qaytayin.  
Sen bilan uchrashuvga borayotganda,  
Atir o'rniga iforing sepayin.  
Men sevmalikni hech xayol etmadim.  
Kulib turgan ko'zlaring telba aqlimga kelsa,  
Ikki karra kuchliroq sevdim.  
O'zimdanda nafratlangan men,  
Sen tutding deya qo'llarimni sevar bo'ldim.  
Yolvoraman, meni izlama, senga g'arq bo'ldim...

## Menimcha, biz eng katta ahmoqlikni munosib bo'lmagan insonlarga o'zlari loyiq bo'lmagan ahamiyatni berganda qildik

Istaganing qadar ista, istaganing qadar sev, bir paytlar sevib adog'iga yeta olmagan insoningni unutish orqali bitirishga urinmoqdasan. Kun kelib, "Buni ham u bilan boshdan kechirgan edik", deysan. O'sha lahzada yig'lashga urinsang ham yosh chiqmaydi, yig'lamasang, bo'g'zingda paydo bo'lgan g'alati og'riqdan gapira olmay-san.

**Alloh jumlamizni asrasin.**


## Ishtiyoq masalasi

Bizga ko'ngli bo'lsa ham, ishtiyoqi bo'lmaganlar emas, ko'ngli qadar ishtiyoqi bor insonlar lozim.

Ko'ngli bo'lsa-yu, ishtiyoqi bo'lmasa. U holda bunday insonlarning ko'ngli ham, ishtiyoqsizligi ham hayotimizga kirmasin.

Bizga ko'ngli qadar ishtiyoqi bo'lgan insonlar lozim. Chunki haqiqiy sevgi va haqiqiy qadr insonni sevib, uni qadrlash orqali namoyon bo'ladi.

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev



## Sen unga ketding...

Nafas bo'lsang, ortiq ichimga tortmayman seni.  
Men seni go'zal sevgandim. Tan ol, eng go'zal tarzda  
sevdim.

Aslida sen bilasan hech kim men kabi seni seva ol-  
masligini. Mening yagona zaif nuqtam sensan. Sen buni  
bilasan va doim mana shu nuqtamga zarba berasan.

**Bundan mohirona ravishda foydalanding, ammo  
ortiq qabuli ijobat duo bo'lsang ham,  
"Omin" demayman senga...**

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

**"Boshingga kelganini ko'raver!"  
degandi.**

**Vaholanki, uni ko'rishni  
qo'ya turing, holatimni  
ko'ra olmaydigan  
darajada ko'r edim...**

Sendan necha marotaba ranjidim?  
Necha marotaba afsuslandim?  
Necha marotaba parchalandim?  
Va sening bulardan aslo xabaring  
yo'q edi.

Bularning barchasi  
sodir bo'lar ekan, men seni  
sevishda davom etardim...

Bilaman.

Bu qadar sevmasligim kerak edi,  
ammo menga boqar ekan,  
kulib turgan ko'zlaring  
bunday demadi.

Men esa boricha sevdim...  
Omonlik bo'lsin, xayrlisi bo'lsin...  
Ammo ishq bo'lmasin...

## G'ururim singan bo'lsa ham, mayli

O'z vaqtida qalbim ham singan edi, bu ham o'tib ketadi. Ayniqsa, sen ketasan. Shunday ketasanki, go'yo hech narsa bo'lmagandek. Kechagina kelgan odam, bugun ketganiga ishonish qiyin. G'alati, shunday emasmi? Kechagina bag'riga bosayotgandi. U ketar, biz esa yolg'izlikka ko'nikamiz. So'ngra davraga Sezen kiradi:

**"Men sening asiring o'laroq qoldim".**





## Nega sen?

Rosti, bilmayman. Aslini olib qarasang, men ham seni tanlaganim uchun mamnun emasman, chunki sen hech narsaga loyiq emassan. Hech narsaga.

Mendan eng boshida: "Nega men?" deb so'ragan eding.

Senga: "Farqingni o'zing aniqla", degandim. "Yoninga bir qalb qo'ydim, istasang sev, istasang sindir, parchala". Sen esa o'z farqingni o'zing belgilading. Hech narsaga arzimaysan. Na sen uchun boshimga kelgan dardlarga arziysan, na qo'ling qo'limga arziydi bundan keyin.

**O'zingni ehtiyot qil, noloyiqginam...**

Mening birgina onam bor,  
ikkinchi onam sening "ha" degan  
javobingga bog'liq.  
Nega shunday bo'lmasin?

Sev  
Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Tan oling axir.  
Barchamiz eng arzimas  
insonlarni sevdik.  
Inkor qilmang!  
Biz bu hayotdagi eng katta xatoni  
ularni sevganda qildik.

## Senga bo'lgan hislarim doim beg'ubor edi

Bu hisning ta'rifi yo'qligi aniq. Qo'limdan tutganingda o'zimga bo'lgan ishonchning ortishi boshqa hech bir narsada yo'q. Eng ajib holatlarimiz, uchrashish uchun onangga yolg'on to'qishga urinishlarimiz edi. Tushlik vaqtida uchrashishimiz kerak bo'lsa, yuragim tongdan boshlab tez-tez urardi.

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Sen menga tegishli  
bo'lgan paytingda seni  
Allohga omonat topshirardim.  
Endi ularga tegishlisan,  
Allohga havola qilmoqdaman...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Qo'yaver.  
Mening ishqqa bo'lgan  
ishonchimni-yu, boshqasini.  
Allohga bo'lgan  
ishonchimdan keyin  
sen turar eding...

## Seni sevib qolgach, ancha o'zgardim

Senga bog'liq hamma narsani birinchi darajaga qo'ydim. Baxt masalasiga kelganda, sening baxting muhimroq edi men uchun. Bunga berilib ketdim, chunki seni qanchalik baxtli qilsam, shu qadar uzoq vaqt qolarding yonimda. Har doim biz uchun mehnat qildim, harakat qildim.

Sendan so'rasam, eng sevimli taomimni ham bilmaysan hatto. Mayli, qo'yaver. Bir tomonda men qaysi taomni ko'proq xush ko'rishimni bilmaydigan sen. Boshqa tomonda esa ilk bor gaplashishni boshlagan kunimizning soati-yu, daqiqasini yodda tutgan men. Sen o'sha yerda qolaver. Men bu tarafda qolaman.

**Sen qolaverginki,  
men ikki kishining o'rniga sevay.**

## Mabodo, bo'lib o'tgan shuncha voqealardan so'ng ortga qaytishni istasang, marhamat, kelaver

Choyim sen uchun doim damlangan holatda turadi. Qalbimning eshiklari senga doimo ochiq. Quchishni istasang qo'llarim ham ochiq. Bergan barcha azoblaring uchun minnatdorman. Barchasi yetarlicha lazzatli edi. Og'rig'i biroz ortiqcha edi, ammo mayli. Baribir go'zal edi. Aytganimdek, bularni menga yashatganingga qaramay kelaver, kutaman seni. Avvalgidek bo'lsa ham, bo'lmasa ham kel. Eng kutganing ham, kelganing ham men bo'lay.

Bilasan, dunyoning eng katta azoblarini yashatsang ham seni sevaveraman. Hayotimda o'tkazgan eng go'zal damlarimning sohibi sen eding. Anglaganingdek, ilk qalb og'rig'im ham sensan. Ketishning izohi bo'larmidi?

**Choy qo'ydim.**

**Ko'nglimni senga qo'ydim.**

**Sen menga beradigan azoblaringni**

**ol-da, kel qani...**




Hech bir kunning daqiqasini  
isrof etmay sen haqingda o'ylash,  
qanday telbalik?

Tong mahali uyg'onib, seni sevaman, sog'inaman.  
Xabar yozmaganingni bila turib, telefonga qarayman.  
Odatdagidek, yanglishmayman. Balki sevmassan, balki  
ba'zi narsalarni his etmassan, ammo inson degani xavotir  
oladi, qo'ng'iroq qiladi, o'ylaydi. Qanday qilib bu qadar  
hissiz bo'la olasan?

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

**"Sevsangiz,  
bu haqda so'zlamang,  
anglamaydi..."**



## Mendan keyin kim bilan, nimalarni boshdan kechirganing, nima qilganing meni qiziqtirmaydi

Muhim bo'lgan narsa, sen mening yonimda bo'lgan damlar edi. Men qilishim kerak bo'lgan ishning ortig'ini qildim, buni sen ham bilasan. Loyiq bo'lganingdan ko'proq sevdim. Har kun seni takroran sevdim. "Ba'zan sevishning o'zi yetmaydi", deydilar, bularni eshitmaslikka olib keldim. Hamma narsaga, hamma insonga qaramay seni kuchli sevdim.

Ko'proq sendan ranjidim. Ko'proq senga aldandim, ko'proq sendan jarohat oldim. Yaxshi-yomon nima bo'lsa, ko'proq senga bog'ladim. Senga **kuldim**, senga yig'ladim. Bularning barini eng ko'p men **qildim**. Bu olamda eng ko'p men sevdim seni. Hatto bu **dunyo** ikkimiz uchun-gina yaratilganini o'ylagan paytlarim ham bo'ldi. Balki, meni telba deb o'ylarlar. Mayli, bu meni qiziqtirmaydi, ammo yonimda bo'lganingda o'zimni senga bag'ishladim. Biroz gapirsang-chi, meni qo'yaver, bir chetga surib tur. Boshdan kechirganlarimiz-chi?

Hech birini eslamaysanmi? Bu qanday bo'lyapti-ki, qisqa vaqt ichida voz kechishga urinyapsan, qanday

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

qilib? Sen bu qadar yuraksiz bo'la olmaysan. Qalbing ko'r bo'libdi, sevishni unutibsən sen. Esingdami? Menga kelganingda qalbing parcha-parcha edi. Men davoladim. Men doim sening yoningda bo'ldim. Men ta'mirladim tuyg'ularingni, ishonchingni, qalbingni...

Eng qiyin damlaringda yoningda bo'ldim. Buning evaziga men bilan qolishingdan boshqa istagim yo'q edi. Endi qalbingni kim davolaydi? Sen yana boshqasiga ishonishga harakat qilasan, ammo yo'q, bu safar bo'lmaydi. Men qalbimni o'rtaga qo'ygandim. Buni hamma ham qila olmaydi.

**Chap qulog'im qizisa,  
menga la'nat aytayotgan bo'lasan.  
Joning omon bo'lsin, men sendan hattoki  
nafratlanmayman,  
chunki nafratinga ham arzimaysan.**

## Bir insonni uning kamchiliklari bilan sevish buyuk ma'rifatdir

Hammaga ham nasib qilavermaydi. Ortig'i bilan sevganlar biroz bo'lsa ham kamchiliklari bilan sevishga harakat qilganlarida edi. Shundagina ishq degan illatning go'zalroq holatlari borligiga dalil topardik. Birozdan so'ng ishq nima ekanini sizga isbotlayman. Eng boshidan boshlab, hammasini bir necha jumlada ta'riflayman. Bir insonni sevish uchun avvalo unga ko'nikishingiz kerak.

Hayotda baxt deb bilgan narsalarini uning yoniga sochib, baxtida buyuk rol sohibi bo'lishga urinayotgan insondan aslo zarar kelmaydi. O'z baxtini bir chetga surib, sevgan insonining baxtini hayotining eng muhim masalasiga aylantiradi. Zotan bugungi kunga qadar qaysi birimiz o'z baxtimizni birinchi darajaga qo'yganmiz? Qachon avvalo o'z tuyg'ularimiz haqida qayg'urdik? Es-lay olmayman. Ehtimol, siz ham eslay olmassiz. Aks hol-da ayni damda bu satrlarni o'qimayotgan bo'lardingiz.

**Bu sahifalarni o'qiyotgan bo'lsangiz,  
yolg'iz emassiz.  
Qalbi parcha, ammo juda kuchli  
insonsiz...**

Va sen...

Hislaringni tub-tubidan anglash uchungina eng sevgan qo'shiqlaringni tinglaydigan insonni yo'qotding...

Eng katta pushaymonligim, yanglish insonlar uchun amalga oshirishga uringan to'g'ri harakatlarim edi. Yanglish insonlar uchun sarflangan to'g'ri hislar, to'g'ri qarorlar, to'g'ri tuyg'ularning son-sanog'i yo'q.

Sevdik. Eng katta xatoimiz, hayotda eng kuchli sevgan insonlarimiz bo'ldi. Sevmasak ichimizda qolardi, balki afsuslanamiz, degan xavotir bilan, "ketsa mendan ketsin", deb necha-necha yanglish yurakka ko'ngil berdik?

Mening katta xatolarim bor. Yanglishlarga sarflagan to'g'rilarim kabi. Boshqa narsalarni qo'ya turing, yanglish insonlarga ko'ngil qo'ydik, ammo ular biz uchun hatto bir choynak choy qo'ymadi. Biz umidlarimizni ularga bog'ladik, ular esa boshqalarga talpindi. Shu ham bizga kifoya qilardi. Yetardi. Hatto, bu bilan qanoatlana olar-

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

dik. Biz ishqning eng ajoyib filmlaridan biri edik... Hisob bo'yicha rekord o'rnatgan...

Ayvonga chiqdim. Havo salqin edi. Yulduzlarning biroz xira, g'amgin manzarasi e'tiborimdan chetda qolmadi. Hatto, oyning shu'lasi xira edi. Hayqirsam, osmon meni anglagan bo'larmidi? Chorasizligimni, qalbim singanini, yolg'izligimni, pushaymonligimni, yo'l qo'ygan har bir xatoimni...

Ovozimning boricha hayqirsam, qaysi yulduz anglardi meni? Balki, hatto eshitmaslar. Men o'zim bilan suhbat qurishdan qanoatlandim. Samolarga hayqirib, dardimni anglatish o'rniga bor kuchim bilan sukut saqlab, chorasizligimni ichimga ko'maman...

**Ba'zi narsalar o'zgarmaydi.  
Ketgan inson ortida qoldirgan dardlar,  
pushaymonlik tuyg'usi,  
ikki o'rtada qolganlik hissi...**



## Va ba'zan ba'zi narsalar shu qadar o'zgaradiki...

Hattoki sen hayratlanasan bu o'zgarishlardan. Ko'zlar-  
ring ko'ra-ko'ra bunga shohid bo'lasan. Bu ham insonning  
jonini kuchli yondiradi. Qarshingdagi insonning katta  
ehtimol bilan o'zgarishi, sen unda sevgan fazilatlarning  
o'limidir. Ma'lum bir muddatdan so'ng qilgan barcha  
harakatlaring behuda ekanini anglaysan. Qo'lingdan kel-  
ganini qilsang ham ba'zi narsalar avvalgidek bo'lmaydi.

**Eskiradi...**

**Balki, ba'zi narsalar eski holatida go'zaldir.**

**Balki, hayotimizga kiritmasligimiz kerak bo'lgan  
insonlarga hayotimizning qoq markazidan joy  
berganimiz uchun o'zimiz eskirgandirmiz...**



**Qo'yavering,  
biz yolg'izlikda ham  
go'zal edik...**

Balki, go'zal hodisalar ro'y berar, balki yakshanba nonushtasini tanovul qilarmiz. Balki, iforing ko'yлагimга singib ketar, chetga olib qo'yaman. Balki, sevarsan, balki, ketarsan.

Eng go'zal umidlarimiz "balki"ga aylandi. Hissizlashdik. Na dardni his etadigan bo'ldik, na baxtni. Go'zal orzularimizning vafoti yuz berdi.

**Hech bir harakat  
bizni ortga qaytara olmaydi...**

## Sen yuragimning zarbalarini bilmaysan

So'nggi paytlarda portlashga tayyor bomba kabiman. Portlasammi, portlamasammi, bir qarorga kela olmayapman... Qara, men avval bir tabassumni bu qadar uzoq vaqt davomida kuzatganimni eslay olmayman. Soch to'lalaring yelkalarimni tark etganiga hanuz ishona olmay ko'zyoshlarim to'kilmoqda. Senga yozgan bir qancha maktublarim bor. Ularni bir kitobchada saqlayman.

Bir kuni meni bag'ringga bosganingda bir soch tolang yelkamda qolgandi. Sen sezmasingdan oldin olib, yashirib qo'ygandim. U ham shu onda daftarimning ichida. Yozgan maktublaringa saqlayotgan kitobchamning ichida egalik qiladi. Sening sevimli bir nimchang bor edi. Uni hanuzgacha yo'qotdim deb o'ylayotgandirsan. Ha, uni ham yashirdim. Ba'zan uni quchgancha uyquga ketaman. Chunki bir marotaba bo'lsa ham yuvmadim. Hamon sening iforing kelib turadi. Chunki yo'qligingni ular to'ldiradi. Tom ma'noda to'ldirmasalar ham, men qanoatlanyapman biroz. Ko'proq yozyapman. Meni shu qutqaradi. Ortig'i bilan charchadim, sevmaganim. Ortig'i bilan sindim. Va singan har bir parcham botyapti menga. Gap jonimning og'rig'ida emas. Bir insonni bu qadar

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev kuchli sevishning badalini yolg'iz o'zim to'lashni istayman.

"Sevmasligim kerak edi", desam, bag'ringa bosgan kunlarimga xiyonat qilgan bo'laman. "Yaxshiyamki, sevibman", desam, shu onda kitobimning orasida saqlaganim soch tolangning bir qanchasi boshqasining yelkasidan qo'nim topgan. Men yaxshisi yoza qolay, sevmaganim. Nima bo'lgan taqdirda ham, qila oladigan eng yaxshi ishimi shu. Vaholanki, bir paytlar qila oladigan eng yaxshi ishimi seni sevish edi.

O'tmishdan qolgan suratlar bilan o'zimni ovutishga uringanlarim... Mayli, ko'p gapirib yubordim. Bu qadar ko'p gapirishga o'rganmaganman. Bilasan, "sevaman" deyishdan ko'ra ko'proq his ettirishni afzal ko'radigan insonlardanman, sevmaganim. Agar, mabodo bir dona bo'lsa ham soching tolasini sevgan insoning tufayli sinib qolsa, menda zaxirasi bor, saqlab qo'yilgan...

Qalbidagi sevgi jumbushini ko'rmadi, meni sevishni istamadi. Qalbidni ko'ra olsa, meni his etsa edi, yuzida moychechaklar gullagan bo'lardi. Biroq meni sevishni istamadi. Chunki qo'rqardi. Boshqalar sababli bu holga kelgan ayol bemehrlik badalini menga to'lattirdi. Va men yana yarim bo'lib qoldim. Hikoya esa boshlanmay turib yakunlandi. U yo'q, men esa holsiz. Men ba'zi narsalarni saqlab qolish uchun yolg'iz yurgan kurash yo'limda oyog'im ko'plab toshlarga tegdi, ko'p bor yaralandim. Bu esa meni sevmasligingdan ham yomonroq vaziyat edi.

Insonning ba'zi narsalarni saqlab qolish uchun qilgan janglari behuda bo'lishidan yomonroq narsa yo'q. Qarshingdagi inson bir marotaba bo'lsa ham hech bir

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev  
tarzda hech narsa qilmaganiga qaramay, sen bor-u  
yo'g'ingni bergan bo'lasan. Arziydimi? Unday deb o'yla-  
mayman. Men arziganingga hech guvoh bo'lmadim.

Bugunga qadar guvoh bo'lganlarimning har biri his-  
larimning mahv bo'lishi edi.

**Jon berishi edi.**

**Inson sevishdan charchaydi.**

**Hammasidan ko'proq esa qo'rqadi.**

## Men seni qo'rqqancha sevdim

Endi esa hislarimning mahv bo'lishiga guvoh bo'lding. Boshlang'ich maktab yillarida ajoyib do'stlarimdan iborat guruh bo'lardi. O'sha paytlar bolalik davrining eng beg'ubor chog'lari edi. Do'stlik atalmish bu rishta mustahkam bog'ga taqqoslangan o'sha muhitda nima ni tanovul qilsak birga tanovul qilar, nima ichsak birga ichardik.

Yillar mobaynida bosim ostida ulg'aydim. Onam yolg'iz boshiga olib borgan kurashidan so'ng bu yerlarga kelishimni hech taxmin qilmagan edim. Qila olmasdim ham. Maktabni bitirgach, mehmonxona menejmenti sohasida ta'lim oldim. Besh yil davomida litseyda o'qidim. Aksariyat hollarda o'qishga cho'ntagimda bir chaqasiz borardim. Bunda na o'zimni aybladim, na atrofimdagi insonlarni.

Litseyning birinchi kursiga borganimda yon daftari bo'lardi. O'sha paytlarda ilk ijodimni shu daftarga yozardim. Kundalikka o'xshash narsa edi u. Ammo aslini olganda, unday emas. Hayot taqdim etayotgan mashaqqatlarga bo'yin egmaslik uchun qo'limdan kelgancha harakat qilardim. Litseyda tahsil olayotgan davrimda xayolimga kelgan eng go'zal jummalarni darhol bir chetga yozib qo'yardim. Ta'lim olish jarayoni mobaynida

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

sarf-xarajatlarimni qoplash uchun mehmonxona xizmatchisi bo'lib ishlardim. Kimsaga muhtoj bo'lmaslik uchun tishimni tishimga qo'yib, yarim tunda ham ishladim. Chunki muhtojlik mashaqqatdir, bilasiz. Och qolgan kunlarim ham bo'lardi.

Hech qachon shikoyat qilmadim. Kimsadan kichik bo'lsa ham istagim bo'lmadi. O'tgan kunlarim mashaqqatlarga to'la edi. Hammaning o'tmishi muammolidir. Biror jumla "o'tmish" so'zini o'z ichiga olsa, kechinmalar orasidan go'zal holatlarni topishingiz amri mahol. Onam va otam ajrashganligi sababligina yillab bosim ostida ulg'aydim. Eng murakkab kunlarimni "Bu bolani yetimxonaga ber, odam bo'lmaydi" kabi jumlar asorati ostida o'tkazdim.

Yagona aybim, onam va otamning ajralishi edi. Xo'sh, bu mening aybimmidi o'zi? Unday deb o'ylamayman. Mahallada tez-tez ajralib qolardim. O'qigan ta'lim muassasalarimda yolg'izlanib qolardim. Ammo Alloh menga imkonlar taqdim etib, meni o'z holimga tashlab qo'ymadi.

Qalbimda Allohga bo'lgan ishonchim bor edi. Bu esa menga yetarli bo'ldi. Doim shukr qildim. Ismim Mirach (Me'roj) ekanligi ham meni baxtli qilardi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hazratlari Allohni ko'rish uchun ko'kka chiqarilgan kechaning nomi Mirach (Me'roj)dir. Va men shu sababli ham jamiyatga, insonlarga, ismimga va o'zimga loyiq bo'lish uchun qo'ldan kelgancha harakat qildim. Alloh qalbimdagi niyat yaxshi ekanini doim bilib turadi. Men na pul istadim, na obro'. Men Allohdan so'ragan yagona narsa – sabr edi. Va Alloh uni menga ortig'i bilan berdi. Buning uchun Allohga shukrlar bo'lsin. Litseydagi hayotim davomida ijod qilishda davom etdim.

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Aksariyat insonlar yozganlarimda o'zlarining dardlari aks etganini payqadi. Buni eshitish meni baxtli qilardi.

Birdan ortiq inson bilan ayni dardni baham ko'rish meni yozuvchilik mavzusida yanada rivojlantirdi. O'qishda tashkillashtirilgan insho tanlovlarida birinchilikni qo'lga kiritish boshladim. Bir necha marotaba g'oliblikni qo'lga kiritgach, ushbu tanlovlardan olgan mukofotlarimni maktab kutubxonasiga taqdim etdim. Va keyingi davrlarda tashkillashtirilgan tanlovlarda atayin ishtirok etmadim, chunki ishtirok etganimda birinchilardan bo'lib mukofotni qo'lga kiritishimni butun maktab bilardi. Boriga shukr qilib, bir chetga o'tdim. Vaziyati og'ir bo'lgan o'quvchilar bor edi. Ularning bu pulga mendan ko'proq ehtiyoji bor edi. Ular ham g'olib bo'lishi uchun tanlovlarga qo'shilmadim. Litsey davridagi hayotim mobaynida kitob chiqarish haqidagi fikrlar to'lqinida yashadim. Tabiiyki, bu orada maqolalar yozishni to'xtatmadim.

Tinimsiz yozdim, tinimsiz o'qidim. Zotan, yozish insonning o'zi bilan o'zi dardlashishi kabi jarayondir. Men ham muntazam ravishda o'zim bilan dardlashdim. Ushbu vaqt mobaynida yana insonlarning menga qilgan o'yinlariga duch keldim. Tuyg'ularimni tinimsiz o'yin qilib, menga dard chektirishdan baxt tuydi bu insonlar. Ammo yaxshiyamki, shunday qilibdilar. Bu ularning haqiqiy yuzini ko'rishimga ko'mak hamda o'zim bilan dardlashishimga fursat yaratib berdi.

Yozish orqaligina ko'nglim halovat topayotganini sezgach, tinimsiz yozishda davom etdim. Ilk qoidam misralarimda o'z dardlariga duch kelgan insonlarning samimiyatini qozonish edi. Ayni dardlarga hayotida qayta duch kelmasliklari uchun ularga qo'limdan kelgancha

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

yo'l ko'rsatish edi. Insonlar men yozgan satrlarda nafaqat o'z dardlarini, balki baxtini, pushaymonligini, xatolarini, qilmasligi kerak bo'lgan xatti-harakatlar va bir qancha narsalarni topdilar. Bularga sababchi bo'lganim uchun, insonlarning qog'ozga tushirgan satrlarimni o'qishida o'z baxtimni ko'ra boshladim. Mehmonxonada ofitsiantlik qilgan paytlarimda xayolimga kelgan bir jumlaning hisob varag'iga yozib, uni saqlab qo'yganim yodimda. Yana nelar... Dardni his etsangiz, sizga dardni his ettiradigan inson bunga munosib ekani yoki munosib emasligiga diqqat qilishingiz zarur.

Endi mendan: "Dard chekishingizga sababchi bo'lgan inson nimaga ham munosib bo'lishi mumkin?" deb so'rashingiz mumkin. Ha, balki arzimastir. Biroq ular sizga dard chektirishini bilgan holda ularni sevishda davom etishingiz ular uchun eng kuchli azob bo'ladi.

**Unutmang.**

**Siz hamma narsaga munosibsiz.**



## Sevasan, sevasan

Haqiqatan, butun samimiyating bilan sevasan. Masalan, u uchun ba'zi narsalardan, atrofingdagilardan voz kechasan. Sevishni istagan insoningni barcha kamchiliklari bilan qabul qilasan. Ijobiy jihatlarni bir chetga surib qo'yib, salbiy jihatlarni ham sevishga o'rgatasan o'zingni. Chunki bu muhimroq... Seni baxtli qilgani uchun emas, uni sevganing uchun mitti qalbing naqadar tez urayotgani haqida o'ylab sevasan. O'zingdan voz kechishni ham istisno qilmaysan. Ranjitmagan, joniga tegmagan holda egalik qilasan. Nafaqat kulganida, balki yig'laganida ham yonida bo'lasan. Himoya qilishni bilasan. Chunki sevasan. Uni ko'rganingda qanchalik hayajonlanishing haqida bir o'ylab ko'r, bu tuyg'uni senga his ettirgani uchun undan minnatdor bo'lasan.

**"Sevishini aytadiganlardan emas,  
his ettiradigan va yashatadiganlardan bo'l".**

## Vaqtingizni o'g'irladim, uzr so'rayman

Ammo tuyg'ularingizni emas. Siz borligingizcha qoling, siz uchun harakat qilmagan insonlarni deb ovvora bo'lmang, chunki bunga arzimaydilar. Aslida hech narsaga arzimaydilar. Quloqchiningizni taqib, sayrga chiqing. Tafakkur qiling. Sevishdan qo'rqmang, ammo hayotingizda yo'qotishdan qo'rqadigan insoningiz bo'lishi kerak. Qo'rqing, ammo faqatgina yo'qotishdan. Sevishdan emas. Tuyg'ularingizni zichlashtirmang. Ishqni salbiy tuyg'ular aro his etolmaysiz. Agar taqdiringizda bo'lsa, bir kun kelib juftingiz qarshingizdan, albatta, chiqadi.

**Bir ishqning yakuniga ham keldik.**


## Armonlarim qatoriga yana bir armon qo'shildi

Sizning baxtingizni ustun qo'yadigan insonlarni seving. Siz uchun harakat qilmaydigan insonlarni deb, o'zingizni qiynamang. Ular bunga loyiq bo'lmasa ham, biz ularni o'z nazdimizda ahamiyatli hisoblaymiz.

Hayotingizning nurlarini so'ndiradigan insonlar bilan aslo murosa qilib o'tirmang. Ular ikkiyuzlamachilikda surbetlashib ketadi. Ammo baribir sevishdan qo'rqmang. Sizning qalbingiz bor, tuyg'ularingiz, yuragingiz bor. Kerak bo'lsa, yuragingizni sevgan insoningiz uchun bir makonga aylantirishingiz mumkin. Aytmoqchi bo'lganim, "Sevaman" deyotgan bo'lsangiz, haqiqiy sevgi bilan sevasiz.

**Hayotingizda  
haqiqiy muhabbatni  
uchratishingizga tilakdoshman,  
xonimlar va janoblar.**

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev



## Va siz, beylar...

Hattoki, ayolingizning taqinchoqlarini ham rashk qilishingiz mumkin. Chunki erkak kishi shunday sevadi. Men shunday sevdim. Kiygan libosi, surgan bo'yog'i, sepgan atirini qizg'anadigan darajada kuchli sevdim, chunki hammasi mendan ko'ra ko'proq yaqin edi unga.

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

Yolg'iz men uzoq edim.  
Hamisha uzoq edim.  
Sevilishdan...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

**MIRACH CHAG'RI OQTOSH**  
**"SENI SEVAMAN" DEMA, SEV**

Eng go'zal orzularim armon bo'ldi.  
Boz ustiga, kutmagan insonlarim tomonidan.  
Men esa ushbu vaziyatda sukut saqladim.  
Qo'rqqanimdan emas, ranjiganimdan.  
Ba'zan insonlarning aytishi kerak bo'lgan narsalar  
o'rnini sukut egallaydi.  
Men ham sukut saqladim va o'z filmimni o'zim tomosha  
qildim.  
Rekord o'rnatgan bu filmda,  
bosh rollarni yolg'izligim va armonlarim o'ynadi.  
Men esa faqatgina tomosha qildim.  
Eng go'zal hislarimni loyiq bo'lmagan insonlar uchun  
sarfladim...

Mirach Chag'ri Oqtosh / "Seni sevaman" dema, Sev

**MIRACH CHAG'RI OQTOSH**  
**"SENI SEVAMAN" DEMA, SEV**

MIRACH CHAG'RI OQTOSH

*Seni Sevaman Dema, Sev*

*Men qurgan eng chiroyli orzularim buzib tashlandi.*

*Ustaga ustak hech kutilmagan insonlar tarafidan.*

*Men esa bu vaziyatda sukut saqladim.*

*Qo 'rqqoqligimdan emas, ranjiganimdan.*

*Ba'zan insonning eng ko'p gapirishi kerak bo'lgan narsalarning o'riniga uning jimjitligi sahnaga chiqadi.*

*Men ham jim bo'lib, o'z spektaklimni tomosha qildim.*

*Reytinglarda rekordni qayd qilgan bu spektaklda bosh rolni yolg'izligim va puchga chiqqan hayollarim o'ynadi.*

*Men esa shunchaki tomosha qildim.*

*Eng go'zal hislarimni bunga arzimaydigan insonlar uchun isrof qildim.*

**BOOK  
PRESS**



ISBN 978-9943-8251-2-3



9 789943 825123



